

O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

MANTIQ
(O’QUV QO’LLANMA)

BUXORO-2025

MANTIQ (O'QUV QO'LLANMA)

Inson tafakkurining asosiy sohalaridan biri mantiqdir. Uning kelib chiqishi hamda rivojlanishi, mazmun - mohiyati va uning atrof dunyoga nisbatan munosabati tafakkur bilimlar tizimida o'ziga xos asoslardan biridir. Inson tafakkurining faolligi asosi va bu orqali o'z atrofdagi dunyoni ijobiy tarzda kengaytirishi inson murakkab hayotining bir qirralari kabi izohlanadi. Tafakkur faoliyati inson hayotining ratsional mazmun - ma'noli bo'lishini ta'minlaydi. Aynan shu sababli mantiqni o'rganish doim dolzarb bo'lgan va hozirda ham shunday bo'lib qolmoqda.

O'quv qo'llanma faylasaga turdosh soha mutaxassislari va oliy o'quv yurtlari talabalari uchun mo'ljallangan.

Muallif:

Sayfillayeva D.K.

Taqrizchilar:

Zoirov E.

Kuziyev N.

KIRISH

Mantiq inson tafakkuri qonunlarini o'rganuvchi fandır. Mantıq – bu insonning to'g'ri fikr yuritishi va xulosa chıqarishi to'g'risidagi fandır. Bu kelib chiqishi va rivojlanishi, mazmun - mohiyati hamda uning atrof dunyoga nisbatan munosabati tafakkur bilimlar tizimida o'ziga xos asoslardan biridir. Mantıq fani hamda uni o'qıtish talabalar ta'lim – tarbiya tizimini to'g'ri tashkil etish sohasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mantiq fani qadimgi fan bo'lib ikki ming yil oldin shakllana boshlagan. Bu fanning vazifalari tashqi olamni va odamni o'rganish, bilish jarayonida va o'zaro munosabatkarda to'g'ri fikrlashi shakllantirishdan iboratdir. Jamiyatda fan va texnikaning rivojlanib borishhi mantiq faninning naqadar zarurligini ko'rsatdi. Mantıq tog'risida juda ko'plab ilmiy ishlar qilingan. Mantıq bo'yicha darsliklardan B. Asmus, K. Bakradze, N.Kondakov, Y. Ivlev, I. Kirillov, I. Rahimov, M. Xayrullayev, M. Haqberdiyevlar ishlarinin ajratib ko'rsatish mumkin bo'ladi. Mantıq fani qanchali qiziqarli bo'lsa, u shunchali murakkabdir. Lekin ma'lum bir vaqt davomida mantiq darslari o'quv yurtlarida ancha qisqarib ketgan edi. So'nggi yillarda ta'limda mantiq darslarining yana qaytib kelishi jarayoni hozirda kuzatilmoqda.

Insonning qiziqishi doim mantıq faninni o'rganishni dolzarb qilib qo'yadi. Chunki to'g'ri fikrlash, tafakkur qonun – qoidalarini bilish hamda unga rioya etish, to'g'ri, xatosiz, tushinarli, tartibli, qoidaga muvofiqfikrlash, so'zlash har bir ma'lumotli va madaniyatli insonning ijtimoiy burchidir. Bunda nutq va tafakkur madaniyati yuqori bo'lishi talab etiladi. Uni esa mantiq shakllantiradi.

Hozirda ta'lim – tarbiyaning dunyo standartlari darajasiga ko'ttarilib borayotganligi, jamiyatda information oqimning juda kuchliligi va taraqqiyotning juda tez ketayotganligi mantıq bo'yicha juda aniq va tushunarli bo'lgan darsliklar bo'lishini talab qiladi.

Bu o'quv qo'llanmada ushbu yo'nalishdagi quyidagi masalalarni hal etishga harakat qilindi:

- o'quv qo'llanma yangi talablar va dasturlar asosida yaratilishiga harakat qilindi;
- mantiq atamalarini yoritishda o'zbek tili grammatikasi jihatlariga ko'proq e'ttibor qaratildi;
- mantiq fani taraqqiyot tarixiga ko'proq e'ttibor qaratildi;
- o'quv qo'llanmada mantiqning gnoseologiya, epistemiologiya, psixologiya kabi fanlar bilan o'zaro bog'liqligiga ko'proq e'ttibor qaratildi;
- nazariy bilimlarni mustahkamlash maqsadida darslikda amaliy mashq namunalari ham kiritildi.

1. Mantiq fanining maqsad va vazifasi

Mantiq tafakkur qonunlari, ichki munosabat bog'lanishlari, insonning to'g'ri fikrlashi va fikrlarning real borliqqa to'g'ri kelishi haqidagi fandır. Mantiq ilmi – insonga xos bo'lganchin – to'g'ri bo'lgan tafakkur shakllari, qonun – qoidalar, tamoyillari va meyorlari xususidagi ilmdir (1. 1984. 24b). Mantiq fani falsafa, til (grammatika), ritorika, matematika, gnoseologiya, epistemologiya, etika va estetika kabi fanlar bilan bog'liqdir.

Mantiq fikrning chinligi va to'g'riligini talab qiladi. Bunda fikrning chinligi uning real voqelikka to'g'ri kelishini anglatadi. Fikrning to'g'riligi esa uning mantiq qonunlariga ro'g'ri kelishini anglatadi. Fikrning to'g'riligi uning chinligiga buysonadi va uning asosi bilan o'lchanadi. Fikrning chinligi falsafiy asosga ega bo'lsa, uning to'g'riligi mantiqiy asosga ega bo'ladi.

Fikrning to'g'riligi esa fikr shakllari o'rtasidagi bog'lanishning mantiq qonunlariga to'g'ri kelish – kelmasligi bilan bog'liq bo'ladi. O'z o'rnida buni tafakkurning mazmun va shakllari bilan bog'liq holda tahlil etilsa, u yanada aniq tus oladi. Chunki shakl va mazmun o'zaro bevosita bog'liq bo'ladi. Bu esa tafakkurning dialektik qonunlar va kategoriyalar bilan bog'liqligini namoyon etadi.

O'rganilayotgan har bir fan dastavval shu fanning maqsad va vazifalarini aniqlashdan boshlanadi. Shu jihatdan mantiq ham o'zining maqsad va vazifalariga egadir.

"Mantiq" atamasi grek tilida „logos“ so'zidan kelib chiqqan, bu aql, nutq yoki til kabi turli xil hislar bilan bog'liq. Mantiq nima va uni qanday aniqlash kerakligi haqida ko'plab kelishmovchiliklar mavjudi. Umuman olganda, mantiqqa turli xil xususiyatlar beriladi, masalan, u asoslar va xulosalar o'rtasidagi munosabatni o'rganadi va buni mavzuga bog'liq bo'lmagan holda bajaradi. Mantiq falsafasining muhim vazifasi rasmiy tizim mantiq deb hisoblanishi kerak bo'lgan mezonlarni o'rganishdir. Turli xil mantiq tushunchalari uni haqiqiy xulosaga yoki mantiqiy haqiqatga asoslangan deb tushunishadi. To'g'ri xulosa va mantiqiy haqiqat

mezonlari o'zlari turli yo'llar bilan aniqlanishi mumkin: sintaktik yoki semantik mulohazalar asosidadir.

Mantiq ko'pincha to'g'ri yoki to'g'ri xulosalarni o'rganish sifatida aniqlanadi. Ushbu kontseptsiyada to'g'ri va noto'g'ri xulosalar o'rtasidagi farq haqida umumiy ma'lumot berish mantiqning vazifasidir. Xulosa-bu xulosa bilan birga binolar to'plami. Xulosa asosdan kelib chiqsa, ya'ni binolarning haqiqati xulosaning haqiqatligini ta'minlasa, xulosa haqiqiy hisoblanadi. Mantiqni aniqlashning yana bir usuli mantiqiy haqiqatni o'rganishdir. Mantiqiy haqiqat haqiqatning o'ziga xos shaklidir, chunki u narsalarning qanday ekanligiga, ya'ni qaysi mumkin bo'lgan dunyoning dolzarbligiga bog'liq emas. Buning o'rniga, mantiqiy to'g'ri taklif barcha mumkin bo'lgan olamlarda haqiqatdir. Ularning haqiqati har qanday empirik faktlardan qat'i nazar, faqat ular tarkibidagi atamalarning ma'nolariga asoslanadi. Bu ikki tushuncha o'rtasida muhim bog'liqlik mavjud: agar binolardan xulosaga bo'lgan shartli material mantiqiy jihatdan to'g'ri bo'lsa, asosdan xulosa chiqarish haqiqiydir. Masalan, „atirgullar qizil, o't esa yashil“dan „atirgullar qizil“ degan xulosa to'g'ri, chunki „atirgullar qizil va o't yashil bo'lsa, atirgullar qizil bo'ladi“ degan moddiy shart mantiqan to'g'ri.

Mantiqqa oid dastlabki ma'lumotlar Qadimgi Hind va Xitoy madaniyatlarida uchraydi (2. 2005. 6 – 18b)

Qadimgi Hind va Xitoy mantiq'i turli yo'nalishlarda har tomonlama o'rganilgandir (3. 1975; 4. 1974; 5. 1980). Unda quyidagilarni qayd etish mumkin bo'ladi:

- bu davr mantiq'ining turli bosqichlarga ega ekanligi (masalan Qadimgi Hind mantiqi 5 ta bosqichdan iboratdir) (2. 2005. 17b);
- bu davr mantiq'ining turli falsafiy maktablar bilan bevosita bog'liq holda shakllanganligidadir (masalan Qadimgi Hindda 9 ta, Qadimgi Xitoyda 6 ta falsafiy maktablarining mavjud bo'lganligi kuzatiladi) (6.. 2024.14 – 15b);
- bu davr mantiq'ining turli diniy qarashlar bilan bevosita bog'liqligi ko'zga tashlanadi (7. 2024.30 – 37b);

- bu davr mantiq'i strukturasi tushuncha, hukm, xulosa, sillogizm, nominalizm, realizm masalalarida yondoshuvning o'ziga xosligi (2. 2005. 10 - 15b);

O'zining keying taraqqiyot davrlarida mantiq fani Qadimgi Yunonistonda yaxlit tizim sifatida shakllangan. Mantiq so'zi yunonchada "Logika" bo'lib, u so'z, fikr, aql ma'nolarini anglatadi. Sharqda esa mantiq arabcha so'z bo'lib, u so'z, fikr, ma'no kabilarni anglatadi.

Qisqacha ifodalaganda Qadimgi Yunoniston mantiq g'oyalari quyidagi maktablar faoliyatida kuzatish mumkin bo'ladi:

- Milet maktabi; - Eley maktabi; - Geraklit maktabi; - Atomistik maktab; - Sofistlar maktabi; - Megara maktabi; Elido – eritreya maktabi; - Kinika maktabi; - Kirenaika maktabi; - Platon Akademiyasi; - Aristotelning Likey maktabi; - Skeptika maktabi; - Empiriklar maktabi; - Dogmatiklar maktabi; - Epikur maktabi; - Stoiklar maktabi (2. 2005. 18 - 61b).

Qadimgi Yunoniston mantiq g'oyalari o'z davrida Qadimgi Rim va Vizantiya mantiq'iga va keyinchalik butun Yevropa mantiq taraqqiyotiga kata ta'sir ko'rsatgan. Aslida Qadimgi Yunoniston mantiq g'oyalari hozirgi zamon mantiq'ining poydevori bo'ladi desak, bu xato bo'lmaydi.

Mantiq ma'nosi

Odatda mantiq so'zi ikki xil ma'noda ishlatiladi:

- mantiq taraqqiyotdagi hodisalarning o'zaro bog'liqligini va tafakkur yordamida ularning mohiyatini anglash hamda yoritishni ifodalaydi;
- mantiq tafakkur qonunlari, shakllari va usullarini organadigan hamda insonning to'g'ri fikrlashi haqidagi fandir.

Hayotda "fikir mantiq'i", "voqelik mantiq'i", "hayot mantiqi", "narsalar mantiq'i" kabi iboralar ko'plab uchraydi. Bularning barchasida so'zning ichki bog'lanish kuchi ma'lum bir darajada namoyon bo'ladi. Agar inson fikrida

so'zning ichki zaruriy bog'lanishi sust bo'lsa, unda narsa – hodisa to'g'risidagi fikr ob'ektivligi sust bo'lib, u sub'ektiv xarakterga ega bo'ladi.

Aslida fikr bog'lanishi va taraqqiyotidagi ichki zaruriy qonuniyat nima iborat?

Birinchidan bu qonun insonning irodasi, ruhiy holati, intilishi, hohishi va boshqa ichki holatlarga bog'liq bo'lmaydi va u ob'ektiv xarakterga egadir.

Qonunlar tashqi dunyo narsa – hodisalar orasidagi o'zaro bog'liqlik munosabati asosida vujudga. Aynan shu bog'liqlik mohiyatini anglash mantiq ma'no – mazmunini tashkil etadi.

Tafakkur mantig'i ob'ektiv dunyodagi narsda - hodisalar mantig'ining in'ikosidir. Inson muhokama asosida bir hukmdan boshqa hukm chiqaradi.

Bunda narsalar orasida munosabat muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Masalan Yil oylari tartibi. Tafakkur turli qirrali murakkab bir tizim bo'lib, uning aniq va tartibli ishlashi mantiq bilan bog'liq bo'ladi. Shu jihatidan mantiq inson tafakkuri shakllari va uning qonun - qoidalari haqidagi fandır.

Inson tafakkuri tashqi olamni o'zgartirish va yangi narsalar yaratish kuchiga ega. Uning kuchi esa insondagi mantiq kuchi bilan bog'liq bo'ladi.

Demak mantiq bu:

- inson tafakkuri shakllari va uning qonun - qoidalari haqidagi fandır;
- tushuncha, fikr, xulosa, hukm va mulohazalar to'g'riligi xususidagi fan;
- to'g'ri fikrlash xususidagi fan.

2. Bilish va uning asosiy bosqichlari

Tafakkur bilishning yuqori-ratsional (lotincha ratio – aql) bilish bosqichi bo'lib, unda predmet va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlari aniqlanadi, ular

o'rtasidagi ichki, zaruriy aloqalar, ya'ni qonuniy bog'lanishlar aks ettiriladi.

Tafakkur quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

1. Tafakkurda voqelik mavhumlashgan va umumlashgan holda in'ikos qilinadi. Hissiy bilishdan farqli o'laroq, tafakkur bizga predmetning nomuhim, ikkinchi darajali (bu odatda bilish oldida turgan vazifa bilan belgilanadi) belgilaridan fikran chetlashgan, mavhumlashgan holda, e'tiborimizni uning umumiy, muhim, takrorlanib turuvchi xususiyatlariga va munosabatlariga qaratishimizga imkon beradi. Xususan, turli kishilarga xos individual belgilarni (xulq-atvor, temperament, qiziqish va shu kabilar) e'tibordan chetda qoldirgan holda, ular uchun umumiy, muhim belgilarni, masalan, ongga ega bo'lish, maqsadga muvofiq holda mehnat qilish, ijtimoiy munosabatlarga kirishish kabi xislatlarni ajratib olib, «inson» tushunchasini hosil qilish mumkin. Umumiy belgilarni aniqlash predmetlar o'rtasidagi munosabatlarni, bog'lanish usullarini o'rnatishni taqozo etadi. Turli xil predmetlar fikrlash jarayonida o'xshash va muhim belgilariga ko'ra sinflarga birlashtiriladi va shu tariqa ularning mohiyatini tushunish, ularni xarakterlaydigan qonuniyatlarni bilish imkoniyati tug'iladi. Masalan, yuqorida keltirilgan «inson» tushunchasida barcha kishilar bitta mantiqiy sinfga birlashtirilib, ular o'rtasidagi muhim bog'lanishlar (masalan, ijtimoiy munosabatlar) bilib olinadi.

2. Tafakkur borliqni nafaqat bevosita, balki bilvosita tarzda ham aks ettira oladi. Unda yangi bilimlar tajribaga har safar bevosita murojaat etmasdan, mavjud bilimlarga tayangan holda hosil qilishi mumkin. Fikrlash bunda predmet va hodisalar o'rtasidagi aloqadorlikka asoslanadi. Masalan, bolaning xulq-atvoriga qarab uning qanday muhitda tarbiya olganligi haqida fikr yuritish mumkin. Tafakkurning mazkur xususiyati, ayniqsa, xulosaviy fikr hosil qilishda aniq namoyon bo'ladi. 3. Tafakkur insonning ijodiy faoliyatidan iborat. Unda bilish jarayoni borliqda real analogiga ega bo'lmagan narsalar – yuqori darajada ideallashtirilgan ob'ektlar (masalan, absolyut qattiq jism, ideal gaz kabi tushunchalar)ni yaratish, turli xil formal sistemalarni qurish bilan kechadi. Ular

yordamida predmet va hodisalarning eng murakkab xususiyatlarini o'rganish, hodisalarni oldindan ko'rish, bashoratlar qilish imkoniyati vujudga keladi. 4. Tafakkur til bilan uzviy aloqada mavjud. Fikr ideal hodisadir. U faqat tilda – moddiy hodisada (tovush to'lqinlarida, grafik chiziqlarda) reallashadi, boshqa kishilar bevosita qabul qila oladigan, his etadigan shaklga kiradi va odamlarning o'zaro fikr almashish vositasiga aylanadi. Boshqacha aytganda, til fikrning bevosita voqe bo'lish shaklidir.

Inson ongi faoliyati bilish jarayonining biofiziologik asoslarini tashkil etadi. Inson ongi uning mehnat faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Inson mehnati esa uning ehtiyojlaridan kelib chiqadi.

Bilish insonning atrof olamdagi bilimlarni o'zlashtirish jarayoni. Bilish jarayoni inson ongida kichikdan kattaga va soddadan murakkabga tomon qarab boradi.

Inson bilimining boshlanishi uning mehnat qilishidan boshlanadi. Tabiiy va ijtimoiy ehtiyoj insonni mehnat qilishga majbur qiladi. Aynan mehnat jarayonida inson bilimi boyib, rivojlanib boradi.

Bilish haqiagi fan GNOSEOLOGIYA deyiladi. Aniq bilimlar haqidagi fan esa EPISTEMOLOGIYA deyiladi.

BILISH FALSAFASIGA BO'LGAN YONDOSHUVLAR:

- Materializm; - Idealizm; - Agnostitsizm; - Dualizm; - Panteizm; - Gilozoizm; - Psixoanaliz; - Ekzistensializm.

Bilish jarayoni mazmun - mohiyati jihatidan ikki bosqichdan iboratdir:

- sezgilar orqali bilish (sezgilar, qabul qilish, xotira, tasavvurdan iborat);
- aqliy bilish (u tafakkurdan iborat).

Sezgilar (ko'rish, eshitish, tam bilish, hid bilish va teri orqali sezish turlari mavjud) orqali bilish:

- bilishning dastlabki bosqichi;

- insonni tashqi olam bilan bog'lab turadi;
- unda bilimlar tasavvurimizda narsalar va obrazlar orqali aks etadi;
- hissiy qaqbul qilish, idrok va tasavvur uning shakllaridir;

Idrok sezishning murakkab shakli bolib, unda narsalarning nasfaqat xususiyati, balki butun to'liq obrazi yaxlit aks etadi.

Tasavvur - bu inson miyasida idrok qoldirgan yaxlit obraz izining xotirada tiklanishidir. Tasavvur hissiy bilishdan aqliy bilishga o'tadigan chegarada turgan bilish shaklidir. Tasavvur hayvonlarda ham bo'ladi va u "ongsiz tabiiy reflreksiyaadir". Inson tasavvuri bu "ongli, ijtimoiy tasavvurdir".

Aqliy bilish va tafakkur:

- bilishning yuqori bosqichi;
- bunda sezgilar orqali olingan bilimlar qayta islanadi va tahlil qilinadi;
- bun sezgilar orqali bilish bilan o'zaro bog'liq bo'ladi va ular bir - birini to'ldirib, boyitib turadi;
- mavhum tafakkur aqliy bilishda narsa - hodisalarning vositali aks etishidir. Masalan qandaydir kuzatish vositalari orqali ma'lum bir bilimlarga ega bo'lish.

Tafakkurning sezgi, idrok va tasavvurdan farqlari:

- Tafakkur sezgi ocha olmagan narsalarni o'rganishga yo'l ochadi;
- Tafakkur bilish jarayonlarida muammolarni umumiy o'rganadi;
- Tafakkur bilish jarayonlarida narsa – hodisalar ichki munosabatlarini aniqlashtiradi;
- Tafakkur bilish jarayonlarida narsa – hodisalarning o'zgarish dinamikasini yoritadi.

BILISH MUAMMOLARI:

- Bilish mohiyati;
- Bilish tabiati;

- Bilish chegaralari;
- Bilish manbalari;
- Bilish shakllari;
- Bilish usullari.

INSON ONGINING ONTOLOGIK ASPEKTLARI:

- Neyrofiziologiya;
- Kibernetika;
- Bionika;
- Semiotika.

Inson ongining tarkibiy jihatlari:

- hissiyot; - qabul qilish; - iroda; - idrok; - xotira; - tasavvur; - tafakkur.

Inson tafakkurining vazifalari:

- olamni anglash;
- o'z – o'zini anglash;
- atrof olamga faol ta'sir etish va uni ijobiy o'zgartirish.

TAFAKKURNING EMPIRIK USULLARI

- kuzatish; - tasvirlash; - o'lchash; - qiyoslash; - tajriba qilish.

TAFAKKURNING NAZARIY USULLARI

- formalizatsiya; aksiomatizatsiya; - gipotetika.

TAFAKKURDAGI MANTIQUIY BOG'LIQLIK (Misol)

Yong'oq (Tushuncha)

Yong'oq daraxt (Hukm)

Yong'oq mevali daraxt (Hulosa)

3. Tafakkur shakllari va mantiq qonunlari

Inson tafakkuri tushuncha, hukm, xulosa chiqarish orqali namoyon bo'ladi. Bunda tushuncha odatda narsa - hodisalar xususiyatlarini ifoda etadi. Shu bilan birga tushunchalar so'z iboralarini ham ifoda etishi mumkin.

Masalan: O'zbekiston Respublikasi

Hukm esa odatda narsa - hodisalar orasidagi o'zaro ichki bog'lanishlar bilan bog'liq munosabatlarni ifodalaydi.

Masalan: - Chinor daraxtdir;

- Uran kimyoviy elementdir.

Xulosa chiqarishda ikki yoki undan ortiq narsa - hodisalar orasidagi munosabatlar orqali bir fikrga kelinadi.

Masalan:

Mehnat baxt

Ilm mehnat

Demak ilm baxt

Tushuncha, hukm va xulosaning o'zaro bog'liqligi

Masalan:

Temir (tushuncha)

Temir metall (hukm)

Demak bu qattiq metall (xulosa)

Cillogizm - ikki yoki undan ortiq turli hukmdan yagona xulosa chiqarish.

Masalan:

Havo sovuq

Qor yog'moqda

Demak hozir qish faslidir

Tafakkur o'z qonuniyatlariga ega. Ularning buzilishi xulosalarning noto'g'ri bo'lishiga olib keladi. Tafakkur qonuniyatlari narsa - hodisalar orasidagi o'zaro ichki bog'liqliklar natijasida vujudga keladi.

Masalan:

Inson mazmun - mohiyatiga ko'ra ongli mavjudod.

Tafakkur natijasida inson ongi faoliyatining to'g'ri yoki noto'g'riligi aniqlanadi. Bu inson fikrini narsa - hodisalar realligiga solishtirish orqali amalga oshiriladi.

Tafakkur yordamida inson ongi faoliyati to'g'ri yoki noto'g'riligi aniqlanadi. Bu esa fikrni real borliq bilan solishtirish orqali amalga oshiriladi. Tafakkurda fikrni tekshirish vositali yoki visitasiz bo'ladi.

Vositali tekshirilganda bu turli asbob uskunalar yoki turli xildagi tajribalar orqali bo'lishi mumkin.

Tafakkur orqali narsa - hodisalarning hali aniqlanmagam yangi mohiyatlari ham ochib o'rganilishi mumkin. Bu farazlar (gipotezalar) orqali amalga oshirilishi mumkin.

Tafakkur shakllari fikrning tuzilishi, bog'lanishi va o'zaro ichki munosabatlaridan iborat bo'ladi.

Tafakkur mazmuni esa aniq bir tushunchada ifodalangan bilimdan iborat bo'ladi.

Masalan: Vodorod tushunchasi o'zida unga xos bo'lgan kimyoviy bilimlarni ifodalagan bo'ladi. Odatda murakkab tushunchalar ham so'z, ham bilim jihatidan keng ma'noga ega bo'ladi.

Ko'p uchraudigan mantiqiy bog'lanishlar sxemalari:

Hamma metallar (**S - sub'ekt**) elektr o'tkazuvchidir (**P - predikat**). Demak **Hamma S - P dir**. Bunda metallar so'zio hukmning sub'ekti va elektr o'tkazuvchi iborasi predikati bo'ladi.

Boshqa misol:

Agar sim orqali elektr toki o'tsa, bu sim atrofida elektr maydon hosil bo'ladi.

Bu gapda **Agar S - P bo'lsa S1 - P1 bo'ladi** degan xulosaga kelinadi.

Tafakkur qonunlari Umumiy va Xususiy qonunlar guruhlariga bo'linadi.

Mantiqda ayniyat, nozidlik, uchinchi istisno va yetarli asos qonunlari mavjuddir. Bu qonunlarning har biri o'ziga xos xususiyatlariga egadir.

Ularning hayotda amal qilishi aynan shu ichki xususiyatlardan kelib chiqadi.

Ularning xususiyatlari turlicha bo'lsada ichki o'xaro aloqadorlikka egadir.

4. Tabiiy va sun'iy til

Tabiiy til ob'ektiv olamning va bilishning turli xil sohalariga tegishli bo'lgan predmetlar, hodisalar hamda ularning xossalari va munosabatlarini qamrab olish va ifoda qilishdek katta imkoniyatga ega. U semantik jihatdan yopiq tizim hisoblanadi. Boshqacha aytganda, tabiiy til boshqa tillarga murojaat qilmagan holda mustaqil ravishda o'zini qurishi va ifoda qilishi mumkin.

Suniy til tabiiy til negizida yaratilgan yordamchi axborot belgilari tizimidan iborat bo'lib, u mavjud xabarlarni aniq hamda tejamli bayon qilish va uzatish uchun xizmat kdladi. Suniy tilda suniy yo'l bilan yaratilgan maxsus belgilar, ya'ni simyullar - ramzlar ishlatiladi. Tabiiy tshuvash konkret mazmunga ega bo'lgan fikrlar ilmiy bilishda ana shunday simvollar bilan almashtiriladi.

Demak, suniy til fikrimizning konkret mazmunidan chetlashgan holda faqag simvollar bilan ish olib borishni ta'minlaydi.

Suniy tillar hozirgi zamon fani va texnikasida keng qo'llaniladi. Ularning, ayniqsa, matematika, fizika, kimyo, kibernetika, hisoblash texnikasi va shu kabi sohalar rivojlanishida hissasi katta. Suniy tillarning ishlatilishiga misol qilib matematikadagi to'g'ri burchakli uchburchak tomonlarini ifoda qiluvchi $\sin^2\alpha + \cos^2\alpha = 1$ formulasini, kimyodagi suvni ifoda qiluvchi H_2O formulani, mexanikadagi tezlikni ifoda qiluvchi $v = \frac{s}{t}$ formulasini va shu kabilarni ko'rsatish mumkin. Elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar tuzishda esa maxsus algoritmik tillar ishlatiladi. Ular «Algol - 60», «Algol - 65», «Fortran», «Kobol», «PL - 1», «Assembler», «Beysik» va boshqalardan iborat. Suniy tildan mantiq fani ham fikrimiz tuzilishini nazariy jihagdan taxdil qilishda foydalanadi. Demak, ilmiy bilishda tabiiy tildan ham, suniy tildan ham foydalaniladi. Ilmiy til esa tabiiy til, suniy til va maxsus atamalardan tashkil toptan bo'ladi.

Tabiiy til interfeysi — bu texnik va programmalash vositalari majmui; hisoblash, boshqarish yoki o'lchash tizimlari (EHM ning operativ va tashqi xotira qurilmasi)dagi turli funksional qurilmalarning o'zaro ta'sirini ta'minlaydi. U uzatilayotgan axborotlarni kodlash va sinxronligiga nisbatan belgilangan qoida hamda kelishuvga muvofiq tayyor modullardan sistemani, qurilmalarning mexanik

va elektr birikmalarini signal ko‘rinishida (axborotlar va boshqa shaklida) to‘plashga imkon beradi.

Kompyuter ishlashi uchun apparatli ta’minotdan tashqari dasturiy ta’minot ham muhim ahamiyatga egadir. Kompyuter tizimini tashkil etuvchi bu ikki vositaning o‘zaro aloqasi interfeys deyiladi. Interfeys bir necha turga bo‘linadi, ya’ni: apparatli interfeys; dasturiy interfeys; apparatli-dasturiy interfeys. Apparatli interfeysni kompyuter qurilmalarini ishlab chiqaruvchilar ta’minlaydi. Dasturiy ta’minot bilan apparatli ta’minot o‘rtasidagi mutanosiblikni operatsion sistema boshqaradi. Kompyuterli tizim samarali ishlashi uchun apparatli va dasturiy ta’minotdan tashqari foydalanuvchi qatnashadi. kompyuterda ishlashi jarayonida uning apparatli ta’minoti bilan ham, dasturiy ta’minoti bilan ham aloqada bo‘ladi. Insonning dastur bilan va dasturning inson bilan muloqatga kirishish usuli foydalanuvchi interfeysi deyiladi. Dasturlar xilma-xil bo‘lgani uchun ularning interfeysi ham turlicha bo‘ladi. Foydalanuvchi interfeysini xususiyatlariga ko‘ra bir nechta turga ajratish mumkin. Dasturning ishlash muhitiga qarab, dastur nografik yoki grafik interfeysga ega bo‘ladi.

Matematik mantiq matematikaning ostmaydoni hisoblanadi va matematikaga rasmiy mantiqni tadbiq qiladi.

Mantiq jarayonini turli matematik belgilar bilan ifodalashga intilish Arastu asarlaridayoq ko‘zga tashlanadi. XVI – XVII asrlarga kelib, mexanika va matematika fani rivojlanishi bilan matematik metodni mantiqqa tatbiq etish imkoniyati kengaya bordi. Nemis faylasufi Leybnits har xil masalalarni yechishga imkon beruvchi mantiqiy matematik metod yaratishga intilib, mantiqni matematiklashtirishga asos soldi. Mantiqiy jarayonni matematik usullar yordamida ifodalash asosan XIX asrlarga kelib rivojlana boshladi.

Mulohaza va uning qiymati. Matematik mantiqning boshlang‘ich tushunchalaridan biri mulohaza tushunchasidir. “Mulohaza” deganda biz rost yoki yolg‘onligi haqida fikr yuritishi mumkin bo‘lgan darak gapni tushunamiz. Har qanday mulohaza yo rost yoki yolg‘on bo‘ladi. Hech bir mulohaza bir vaqtning

o`zida ham rost ham yolg`on bo`la olmaydi. Masalan, “”, “”, “5 son tub son”, “1 son tub son”, “o`g`lining yoshi otasining yoshidan katta” mulohazalarining birinchisi – rost, ikkinchisi yolg`on, uchinchi – rost, 4 chi va 5 chilari esa yolg`on mulohazalardir.

So`roq va undov gaplar mulohaza bo`la olmaydi. Ta`riflar ham mulohaza bo`la olmaydi. Masalan, “2 songa bo`linuvchi son juft son deyiladi” degan ta`rif mulohaza bo`la olmaydi. Ammo “agar butun son 2 ga bo`linsa, u holda bu son juft son bo`ladi” degan darak gap mulohaza bo`ladi. Bu mulohaza – rost.

Mulohazaning qiymati deganda biz uning rost yoki yolg`onligini tushunamiz. Mulohazalar odatda lotin alifbosining bosh harflari ( $A, B, C, \dots, X, Y, Z$ ) bilan, ularning qiymatlari (“rost”, “yolg`on”)ni R va Y_o harflari bilan belgilaymiz. Bu yerda R – rost, Y_o – yolg`on. Shuningdek, ularni raqamlar bilan ham belgilash kiritilgan bo`lib, rost mulohaza 1, yolg`on mulohaza esa 0 bilan belgilanadi.

Qismlarga ajratilmaydigan mulohazalar elementar mulohazalar deb aytiladi. Elementar mulohazalar yordamida undan murakkabroq mulohazalarni tuzish mumkin.

Agar mulohazalar o`rtasiga mantiq amallaridan qo`ysak, yangi mulohaza hosil bo`lib, bunday mulohazaga qo`shma mulohaza deyiladi. Mulohazalar algebrasida rost yoki yolg`on tushunchalari asosiy tushunchalardan hisoblanadi. Qo`hma mulohazaning rost yoki yolg`on ekanligini ta`rifdan kelib chiqqan holda jadval asosida ko`rish birmuncha qulaylik tug`diradi. Bunday jadvalga rostlik jadvali ham deyiladi.

Quyida biz berilgan mulohazalardan mantiq amallari deb ataladigan amallar yordamida boshqa mulohazalar hosil qilish usullarini ko`rib chiqamiz.

5. Mantiqiy amallar va formulalar

Mulohazalar ustida quyidagi mantiqiy amallar - inkor, kon'yunksiya, diz'yunksiya, implikatsiya va ekvivalensiya amallari mavjud bo'lib, ularning ta'rifi hamda rostlik jadvali quydagicha bo'ladi:

Inkor. Bizga biror A mulohaza berilgan bo'lsin.

Ta’rif. Berilgan A mulohaza rost bo’lganda yolgʻon, yolgʻon bo’lganda rost bo’ladigan mulohaza A mulohazaning inkori deyiladi va $\neg A$ yoki $\bar{A}$ orqali belgilanadi.

Bu yerdagi ($\neg A$) yozuv “ A emas” yoki “ A bo’lishi noto’g’ri” deb o’qiladi. Inkori amali ushbu rostlik jadvali bilan aniqlanadi:

A

R (1) Yo (0)

Yo (0) R (1)

Masalan, A mulohaza - «7-tub son» degan rost mulohaza bo’lsin, u holda $\neg A$ - «7-tub son emas» degan yolgʻon mulohazadan iborat bo’ladi.

Kon’yunksiya.

Ta’rif. A va B mulohazalarning ikkalasi rost bo’lganda rost bo’ladigan hamda “va” bog’lovchisi bilan bog’lanuvchi mulohazalar A va B mulohazalarning kon’yunksiyasi deb ataladi, AB hamda $A \wedge B$ ko’rinishlarda belgilanadi.

Bu yerdagi A va B mulohazalar mos ravishda AB kon’yunksiyaning birinchi va ikkinchi hadlari, “ $\wedge$ ” va “ $\cap$ ” belgilar esa kon’yunksiya amali belgisi deyiladi. AB , $A \wedge B$ yozuvlar “ A va B ” deb o’qiladi. Kon’yunksiya uchun rostlik jadvali quyidagicha bo’ladi:

A B AB

R (1) R (1) R (1)

R (1) Yo (0) Yo (0)

Yo (0) R (1) Yo (0)

Yo (0) Yo (0) Yo (0)

Kon'yunksiya – bog'layapman degan ma'noni anglatadi

Masalan, A: “Toshkent – O'zbekistonning poytaxti”, B: “Termez shahri Farg'ona vodiysida joylashgan”, C: “Biz mustaqil yurt farzandlarimiz” degan uchta mulohazani qaraylik. Ta'rifga ko'ra, ravshanki, B mulohaza yolg'on (chunki A – rost, B – yolg'on), C – rost (chunki A – rost, C – rost), C – yolg'on (chunki B – yolg'on, C – rost).

Diz'yunksiya.

Ta'rif. A va B mulohazalarning kamida bittasi rost bo'lganda rost bo'ladigan hamda “yoki” bog'lovchisi bilan bog'lanuvchi mulohazalar A va B mulohazalarning diz'yunksiyasi deb ataladi, ko'rinishda belgilanadi.

Bu yerdagi yozuv “A yoki B” deb o'qiladi, “” belgi diz'yunksiya belgisi deyiladi. A va B lar diz'yunksiyaning mos ravishda birinchi va ikkinchi hadlari deb ataladi.

Diz'yunksiyaning rostlik jadvali quyidagicha bo'ladi:

A B

R(1) R(1) R(1)

R(1) Yo(0) R(1)

Yo(0) R(1) R(1)

Yo(0) Yo(0) Yo(0)

Diz'yunksiya so'zi – farqlayapman degan ma'noni anglatadi.

Masalan, 1) “Yozda toqqa chiqamiz yoki dengizga boramiz” diz’yunksiyasini qaraymiz. Bu mulohaza quyidagi hollarda rost bo`ladi: biz toqqa chiqamiz, ammo dengizga bormaymiz; dengizga boramiz lekin toqqa chiqmaymiz; biz toqqa ham chiqamiz, dengizga ham boramiz. Yangi mulohaza yolg`on bo`ladi: biz toqqa ham chiqmaymiz, dengizga ham bormaymiz.

2) mulohazaning rost yoki yolg`onligini aniqlaylik. Bu diz’yunksiya rost, chunki rost mulohaza va yolg`on mulohazadan tashkil topgan.

3) – mulohaza yolg`on, chunki, – yolg`on, – yolg`on.

Implikatsiya.

Ta’rif. A mulohaza rost, B mulohaza yolg`on bo`lgandagina – yolg`on, qolgan hollarda rost bo`ladigan mulohazaga A hamda B mulohazalarning implikatsiyasi deyiladi va ko`rinishda belgilanadi.

“” belgi implikatsiya belgisi deb ataladi. yozuv “agar A bo`lsa, u holda  $B$  bo`ladi” yoki “ A mulohazadan B mulohaza kelib chiqadi” degan ma’nolarni anglatadi.

Implikatsiya uchun rostlik jadvali quyidagicha bo`ladi:

A	B	
R(1)	R(1)	R(1)
R(1)	Yo(0)	Yo(0)
Yo(0)	R(1)	R(1)
Yo(0)	Yo(0)	R(1)

Implikatsiya so`zi mahkam bog`layapman degan ma’noni anglatadi.

Masalan, 1) “Agar 72 soni 9 ga karrali bo`lsa, u holda bu son 3 ga ham karrali bo`ladi”. Bu rost implikatsiya.

2) “Agar bo`lsa, u holda bo`ladi”, implikasiyasi yolg`on, chunki shart – rost, yolg`on.

Ekvivalensiya.

Ta’rif. A va B mulohazalar bir vaqtda rost yoki bir vaqtda yolg`on bo`lganda rost bo`ladigan mulohaza  $A$  va  $B$  mulohazalarning ekvivalensiyasi deyiladi, ko`rinishda belgilanadi.

Bu yerdagi yozuv “ A faqat va faqat, qachonki B ”, yoki “ A ekvivalent B ”, yoki “ B uchun A zarur va yetarli” deb o`qiladi. Ekvivalensiyaning rostlik jadvali quyidagicha bo`ladi:

A	B
-----	-----

$R(1)$	$R(1)$	$R(1)$
--------	--------	--------

$R(1)$	$Yo(0)$	$Yo(0)$
--------	---------	---------

$Yo(0)$	$R(1)$	$Yo(0)$
---------	--------	---------

$Yo(0)$	$Yo(0)$	$R(1)$
---------	---------	--------

Masalan, A : “972 soni 9 ga karrali”, B : “972 soni raqamlarining yig`indisi 9 ga karrali” mulohazalari berilgan bo`lsin. U holda A va B mulohazalarning ekvivalensiyasi quyidagicha bo`ladi. “972 soni 9 ga karrali bo`ladi, faqat va faqat shu holda, qachonki bu son raqamlarining yig`indisi 9 ga karrali bo`lsa. Bu ekvivalensiya rost.

Mantiqiy qonunlarga amal qilish to`g`ri, tushunarli, aniq, izchil, ziddiyatsiz, asoslangan fikr yuritishga imkon beradi. Aniqlik, izchillik, ziddiyatlardan xoli bo`lish va isbotlilik (asoslanganlik) to`g`ri tafakkurlashning asosiy belgilaridir. Bular mantiqiy qonunlarning asosini tashkil etuvchi belgilar bo`lganligi uchun, ularning har birini alohida-alohida ko`rib chiqamiz.

6. Mulohazalar hisobi

“Mulohaza” va “isbot” soʻzlarining turmushdagi mazmuni anchayin noaniq. Shu sababli, birinchi boʻlib shu tushunchalarni aniqlash uchun maxsus formal (yaʼni formulalarga tayangan) til ishlatiladi.

Formal tilda mantiqiy bogʻlovchilar deb ataluvchi maxsus belgilardan foydalaniladi: $\dot{\cup}$ - mantiqiy koʻpaytirish, $\dot{\cup}$ - mantiqiy qoʻshish amallari deb yuritiladi. $A\dot{\cup}B$ mulohazani A va B ; $A\dot{\cup}B$ mulohazani A yoki B ;

mulohazani A mulohazadan B mulohaza kelib chiqadi yoki agar A bo'lsa, u holda B bo'ladi; mulohazani A mulohazadan B mulohaza va B mulohazadan A mulohaza kelib chiqadi yoki A bo'ladi, faqat va faqat shu holdaki, agar B bo'lsa, deb o'qiymiz. Mulohazalar to'plamini M harfi bilan belgilaylik. U holda M to'plam, unda bajariladigan barcha $\neg$, $\cup$, $\cap$, amallar bilan birgalikda mulohazalar algebrasi deb yuritiladi. Mulohazalar algebrasini qisqacha MA orqali belgilaymiz. M to'plamda bajariladigan amallarni bajarilish tartibi quyidagicha: avval inkor amali bajariladi, agar inkor amali qavslardan tashqarida bo'lsa, u holda qavs ichidagi amallar bajariladi. Keyin kon'yunksiya, undan so'ng diz'yunksiya, implikasiya va nihoyat ekvivalensiya amallari bajariladi.

Ta'rif. $A, B, C, \dots$ mulohazalarni inkor, diz'yunksiya, kon'yunksiya, implikasiya va ekvivalensiya kabi mantiqiy bog'lovchilar vositasi bilan ma'lum tartibda birlashtirib hosil etilgan murakkab mulohaza **mantiqiy formula** deyiladi.

Mantiqiy formulalar tabiiy tildagi mulohazalarning matematik modeli bo'ladi. Mulohazalar hisobida mantiqiy formulalar **rostlik jadvallari** yordamida izohlanadi. Bunday jadvallar mantiqiy bog'lovchi orqali tuzilgan murakkab mulohazaning rost (1) yoki yolg'on (0) ligini tashkil etuvchi mulohazalar rostligiga qarab aniqlanadi. Yuqoridagi amallarning rostlik jadvalaridan foydalanib, yanada murakkabroq mulohazalar uchun rostlik jadvalini tuzish mumkin.

Jadvalni yakunlab, qarayotgan A va B mulohazalar rostligidan qat'iy nazar mulohaza doim rost bo'lishini ko'ramiz.

7. Asosiy mantiqiy qonunlar

1. – uchinchisini inkor qilish qonuni.

Bu qonun quyidagicha ifodalanadi: bir-biriga zid boʻlgan ikki fikrdan biri hamisha toʻgʻri (rost) boʻlib, ikkinchisi xatodir, uchinchisi boʻlishi mumkin emas.

Masalan, bir vaqtning oʻzida, bir xil sharoitda inson yo axloqli, yo axloqsiz boʻladi. Yuqorida keltirilgan ikkita qonun fikrlash jarayonida ziddiyatga yoʻl qoʻymaslikni talab qiladi va tafakkurning ziddiyatsiz hamda izchil boʻlishini taʼminlaydi.

2. 0 – ziddiyatsizlik qonuni.

Bu qonun quyidagicha ifodalanadi: obyektiv voqelikdagi buyum va hodisalar bir vaqtda, bir xil sharoitda biror xususiyatga ham ega boʻlishi, ham ega boʻlmasligi mumkin emas.

Masalan, bir vaqtning oʻzida, bir xil sharoitda inson ham axloqli, ham axloqsiz boʻlishi mumkin emas.

3.() - qoʻsh inkor qonuni.

«Bu kishi ilg`or emas degan gap to`g`ri emas» degan fikr «bu kishi ilg`or» degan fikrga teng kuchli.

4.- *kontrapozitsiya qonuni.*

Bu qonun inkor amali yordamida tezis (isbotlanishi kerak bo`lgan fikr) va asosni (tezisni isboti uchun keltirilgan dalillar) o`rnilarini almashtirishga imkon yaratadi.

Masalan, «Agar shaxs chuqur bilimga ega bo`lsa, u holda u komil inson bo`ladi» degan mulohaza “Komil inson bo`lmagan shaxs chuqur bilimga ega bo`lmaydi” degan mulohazaga teng kuchli.

5. (A)A;

(A)A - *de Morgan[2] qonunlari.*

De Morgan qonunlari inkor amali yordamida kon'yunksiya va diz'yunksiya amallarini bir-biri bilan almashtirishga imkon yaratadi.

Masalan, 1) «Halol va vijdonli inson axloqli bo`ladi» mulohazaning inkori «Halol bo`lmagan yoki vijdonli bo`lmagan inson axloqsiz bo`ladi» mulohazaga teng kuchli.

2) «Men darsdan so`ng yo kutubxonaga, yo do`stimnikiga bordim» mulohazaning inkori “Men darsdan so`ng kutubxonaga ham, do`stimnikiga ham bormadim” mulohazaga teng kuchli.

6. *P.*

Masalan, «Agar bo`sh vaqtim bo`lsa, unda televizor ko`raman» mulohaza «Yoki bo`sh vaqtim bo`lmaydi, yoki televizor ko`raman» mulohazaga teng kuchli.

7.; – *kommutativlik qonunlari.*

Kommutativlik qonunlari o'z-o'zidan ravshan bo'lsa ham, ularni o'ylamasdan qo'llashda muammolarga duchor bo'lish mumkin. Bu holatga **Klini[3]** **misolini** keltiramiz:

: “Maryam turmushga chiqdi”; : “Maryam farzand ko'rdi”.

Bu holda , formulalar mos ravishda teng kuchli bo'lmagan talqinlarga ega.

Fikrimizcha, buning sababi yuqoridagi mulohazalarda ko'rinmas holatda vaqt parametri ishtirok etishida.

8. $(())$; $(C)((C))$ – *assotsiativlik qonunlari*.

9. $(C)((C))$; $(C)((C))$ - *distributivlik qonunlari*.

10. $(())$; $(())$ - *qisqartirish qonunlari*.

Mantiq algebrasida mulohazalar faqatgina chin yoki yolg'on qiymat qabul qilishi nuqtai nazaridan qaralib, mulohazalarning strukturasiga ham, hattoki, mazmuniga ham e'tibor berilmaydi. Ammo fanda va amaliyotda mulohazalarning strukturasini va mazmunidan kelib chiqadigan xulosalardan (natijalardan) foydalaniladi.

Masalan, «Har qanday romb parallelogrammdir; ABCD – romb; demak, ABCD – parallelogramm».

Asos (shart) va xulosa mulohazalar mantiqining elementar mulohazalari bo'ladi va ularni bu mantiq nuqtai nazaridan bo'linmas, bir butun deb va ularning ichki strukturasini hisobga olmasdan qaraladi. Shunday qilib, mantiq algebrasi mantiqning muhim qismi bo'lishiga qaramasdan, ko'pgina fikrlarni tahlil qilishga qodir (yetarli) emas. Shuning uchun ham mulohazalar mantiqini kengaytirish masalasi vujudga keldi, ya'ni elementar mulohazalarning ichki strukturasini ham tadqiq eta oladigan mantiqiy sistemani yaratish muammosi paydo bo'ldi. Bunday sistema mulohazalar mantiqini o'zining bir qismi sifatida butunlay o'z ichiga oladigan predikatlar mantiqidir.

Predikatlar mantiqi an'anaviy formal mantiq singari elementar

mulohazani **subyekt** va **predikat** qismlarga bo‘ladi.

Subyekt – bu mulohazada biror narsa haqida nimadir tasdiqlaydi; **predikat** – bu subyektni tasdiqlash.

Masalan, «5 – tub son» mulohazada «5» – subyekt, «tub son» – predikat. Bu mulohazada «5» «tub son bo‘lish» xususiyatiga ega ekanligi tasdiqlanadi. Agar keltirilgan mulohazada ma’lum 5 sonini natural sonlar to‘plamidagi x o‘zgaruvchi bilan almashtirsak, u holda « x – tub son» ko‘rinishidagi mulohaza formasiga (shakliga) ega bo‘lamiz. x o‘zgaruvchining ba’zi qiymatlari (masalan, $x = 13$, $x = 3$, $x = 19$) uchun bu forma chin mulohazalar va x o‘zgaruvchining boshqa qiymatlari (masalan, $x = 10$, $x = 20$) uchun bu forma yolg‘on mulohazalar beradi.

Ravshanki, bu forma bir (x) argumentli funksiyani aniqlaydi va bu funksiyaning aniqlanish sohasi natural sonlar to‘plami ($\mathbf{N}$) hamda qiymatlar sohasi $\{1, 0\}$ to‘plam bo‘ladi.

1- t a’ r i f. M to‘plamda aniqlangan va to‘plamdan qiymat qabul qiluvchi bir argumentli $P(x)$ funksiya **bir joyli (bir o‘rinli) predikat** deb ataladi.

M to‘plamni $P(x)$ predikatning **aniqlanish sohasi** deb aytamiz.

$P(x)$ predikat chin qiymat qabul qiluvchi hamma $x \in M$ elementlar to‘plamiga $P(x)$ predikatning **chinlik to‘plami** deb ataladi, ya’ni $P(x)$ predikatning chinlik to‘plami $I_P = \{x : x \in M, P(x) = 1\}$ to‘plamdir.

2- t a’ r i f. Agar M to‘plamda aniqlangan $P(x)$ predikat uchun $I_P = M$

($I_P = \emptyset$) bo‘lsa, u **aynan chin (aynan yolg‘on) predikat** deb ataladi.

Endi ko'p joyli predikat tushunchasini o'rganamiz. Ko'p joyli predikat predmetlar orasidagi munosabatni aniqlaydi.

«Kichik» munosabati ikki predmet orasidagi binar munosabatni ifodalaydi¹.

« $x < y$ » (bu yerda $x, y \in \mathbf{Z}$) binar munosabat ikki argumentli $P(x, y)$ funksiyani ifodalaydi. Bu funksiya $\mathbf{Z} \times \mathbf{Z}$ to'plamda aniqlangan va qiymatlar sohasi to'plam bo'ladi.

3- t a ' r i f . $M = M_1 \times M_2$ to'plamda aniqlangan va to'plamdan qiymat oluvchi ikki argumentli $P(x, y)$ funksiya **ikki joyli predikat** deb ataladi.

Predikatlar ustida mantiqiy amallar Predikatlar ham mulohazalar singari faqatgina chin yoki yolg'on (1 yoki 0) qiymat qabul qilganliklari tufayli ular ustida mulohazalar mantiqidagi hamma mantiqiy amallarni bajarish mumkin.

Bir joyli predikatlar misolida mulohazalar mantiqidagi mantiqiy amallarning predikatlarga tatbiq etilishini ko'raylik.

4 t a ' r i f . Berilgan M to'plamda aniqlangan $P(x)$ va $Q(x)$ **predikatlarning kon'yunksiyasi** deb, faqat va faqat $x \in M$ qiymatlarda aniqlangan hamda $P(x)$ va $Q(x)$ lar bir vaqtda chin qiymat qabul qilgandagina chin qiymat qabul qilib, qolgan barcha hollarda yolg'on qiymat qabul qiluvchi yangi predikatga aytiladi va u $P(x) \wedge Q(x)$ kabi belgilanadi.

5- t a ' r i f . Berilgan M to'plamda aniqlangan $P(x)$ va $Q(x)$ **predikatlarning diz'yunksiyasi** deb, faqat va faqatgina $x \in M$ qiymatlarda aniqlangan hamda $P(x)$ va $Q(x)$ predikatlar yolg'on qiymat qabul qilganda yolg'on qiymat qabul qilib, qolgan barcha hollarda chin qiymat qabul qiluvchi yangi predikatga aytiladi va u $P(x) \vee Q(x)$ kabi belgilanadi.

$P(x) \vee Q(x)$ predikatning chinlik sohasi $I_P \cup I_Q$ to'plamdan iborat bo'ladi.

6- t a ' r i f . Agar hamma $x \in M$ qiymatlarda $P(x)$ predikat chin qiymat qabulqilganda yolg'on qiymat va $x \in M$ ning barcha qiymatlarida $P(x)$ predikat yolg'on qiymat qabul qilganda chin qiymat qabul qiluvchi predikatga $P(x)$ **predikatning inkori** deb ataladi va u $\neg P(x)$ kabi belgilanadi.

Bu ta'rifdan $I_{\neg P} = M \setminus I_P = CI_P$ kelib chiqadi.

7- t a ' r i f . Faqat va faqatgina $x \in M$ lar uchun bir vaqtda $P(x)$ chin qiymat va $Q(x)$ yolg'on qiymat qabul qilganda yolg'on qiymat qabul qilib, qolgan hamma hollarda chin qiymat qabul qiladigan $P(x) \rightarrow Q(x)$ predikat $P(x)$ va $Q(x)$ **predikatlarning** implikasiyasi deb ataladi.

Har bir tayinlangan $x \in M$ uchun

$$P(x) \rightarrow Q(x) \equiv \neg P(x) \vee Q(x)$$

teng kuchlilik to'g'ri bo'lganligidan $I_{P \rightarrow Q} = I_{\neg P} \cup I_Q = CI_P \cup I_Q$ o'rinalidir.

8. Ayniyat qonuni

Ayniyat qonuni mantiqiy tafakkurning eng muhim hislatlaridan bo'lgan har bir fikr, muhokama aniq, ravshan bo'lishini o'zida ifodalaydi. Shuning uchun ham fikrlar hamma vaqt to'g'ri bo'lishi, barcha kishilarga tushunarli darajada ifoda etilishi zarur. Chunki, muayyan buyumlar haqidagi fikrlar ayni shu muayyan fikrlar to'g'risida bo'lishlari, boshqa buyumlar haqidagi fikrlar ham o'zga fikrlar kabi qabul qilinishi tafakkurga qo'yiladigan talablardan biridir. Ayniyat qonuni ana shu mezoriylikni ta'minlaydi.

Demak, ayniyat qonuni muayyan buyum to'g'risida ifodalangan fikr muhokama davomida o'zgarasdan, ayni shu buyum to'g'risida bo'lishi lozimligini talab qiladigan qonundir.

Ma'lumki, tevarak atrofimizdagi tabiat, jamiyatda mavjud bo'lgan predmet, hodisalarning hammasi o'zgarishda, rivojlanishda, yangilanishdagi har bir predmet, hodisa voqea sifatida boshqalardan farq qilib, o'z konkret mazmuni, tuzilishi va shaklga (rangi, hajmi, qat'iyat ovozi va boshqalarga) ega bo'ladi. Shu xususiyati tufayli u boshqa predmet, hodisalar bilan munosabatga kirish imkoniga ega bo'ladi.

Binobarin, ayniyat qonunining talabi - fikrlari bir vaqtning o'zida bir xil belgilarga ko'ra bir - biriga teng bo'lishi zarur.

Ayniyat qonuniga binoan ma'lum muhokama, bahs, munozarada har bir fikr aynan bir ma'noda ishlatilmog'i lozim. Bu qonunga ko'ra, har bir narsaning sifati ma'lum vaqtlardagina ma'noga ega bo'ladi. O'zga vaqtlarda esa, ana shunday fikrni saqlab qolishi buyumning muayyanligini to'la izohlab bermasligi mumkin.

Ayniyat qonuni qayd etadigan fikrlar boshqa sohalarning (jamiyat, tabiat) ham qonunlariga dahldor, hatto I.Nyutonning mashhur butun olamning tortilishi qonuni ham o'zgarmas qonun bo'lolmaydi. Birinchidan, mazkur qonun Quyosh tizimi doirasidagina muayyan ma'noga ega. Ana shu tizim tashqarisida K.Nyutonning emas, balki A.Eynshteynning shu nomdagi qonuni harakat qiladi. Ikkinchidan, Quyosh tizimining 15 milliard yil avvalo paydo bo'lganini inobatga olsak, I.Nyutonning mazkur qonuni tarixiy o'zgaruvchan qonun ekanligini e'tirof etgan bo'lamiz.

Bu o'rinda ikki nuqtaga e'tiborni tortish lozim. Birinchidan, bizning olam va uning qonunlari to'g'risidagi tasavvurlarimiz ham kengayib boradi. Natijada har bir kuzatishga qonuniyat ham nisbatlashadi, ya'ni uning harakat doirasi ma'lum chegaralardagina bo'lishi mumkin. Ikkinchidan, moddiy olam o'zgarishi tufayli qonunlarning ta'sir doirasi ham rivojlanib boradi.

Ayniyat qonunining harfiy ifodasi.

$a \leftrightarrow a$, $A \leftrightarrow A$ yoki mulohaza mantiqda

$a \rightarrow a$, $A \rightarrow A$ kabi bo'ladi.

Mazkur ifoda buyumlarning bir belgisiga ko'ra aytiladigan fikr bir-biriga buyum va uning to'g'risidagi fikr teng bo'lishi lozimligini bildiradi.

Ayniyat qonuni tafakkurga, uning barcha elementlari, shakllariga xos bo'lgan umumiy mantiqiy qonundir. Bu qonunning talablari tafakkurning har bir shakliga xos bo'lgan konkret qoidalarda aniq ifodalanadi. Tafakkurning tushuncha, mulohaza (hukm), xulosa chiqarish shakllari, ular o'rtasidagi munosabatlar shu qonunga asoslangan holda amalga oshadi. Nozidlik qonuni. Inson tafakkuri aniq, ravshan bo'libgina qolmasdan, ziddiyatsiz bo'lishi ham zarur. Ziddiyatsizlik inson tafakkuriga xos bo'lgan eng muhim xislatlardan biridir. Ma'lumki, ob'ektiv voqelikdagi buyum va hodisalar bir vaqtda, bir xil sharoitda biror xususiyatga ham ega bo'lishi, ham ega bo'lmasligi mumkin emas. Masalan, bir vaqtning o'zida, bir xil sharoitda inson ham axloqli, ham axloqsiz bo'lishi mumkin emas. U yo axloqli, yo axloqsiz bo'ladi. Bir vaqtning o'zida bir predmetga ikki zid xususiyatning taalluqli bo'lmasligi tafakkurda nozidlik qonuni sifatida shakllanib qolgan. Bu qonun fikrlash jarayonida ziddiyatga yo'l qo'ymaslikni talab qiladi va tafakkurning ziddiyatsiz hamda izchil bo'lishini ta'minlaydi. Nozidlik qonuni ayni bir predmet yoki hodisa haqida aytilgan ikki o'zaro bir-birini istisno qiluvchi (qarama qarshi yoki zid) fikr bir vaqtda va bir xil nisbatda birdaniga chin bo'lishi mumkin emasligini, hech bo'lmaganda ulardan biri, albatta, xato bo'lishini ifodalaydi. Bu qonun «A ham V, ham V emas bo'la olmaydi» formulasi orqali beriladi. Mulohazalar mantig'ida bu qonun quyidagi formula orqali yoziladi $\forall x(P(x) \rightarrow P(x))$, ya'ni har qanday (x) mulohaza uchun $r(x)$ va uning inkori birgalikda chin bo'lmasligi to'g'ri.

Mantiqda Ayniyat qonuni fikr – mulohazalarning aniq bo'lishini talab qiladi. Bu odatda narsa – hodisalarning mazmunan o'zaro munosabatlarning aniq bo'lishini anglatadi. Bunda narsalarning rangi, massasi, hajmi, qattiq – yumshoqligi va shakli – shamoyili bilan o'zaro farqlarga ega ekanligini inobatga olish kerak bo'ladi. Narsa – hodisalar orasidagi farqlarning turli – tumanligi odatda ular orasidagi munosabatlarni qiyinlashtiradi. Narsa – hodisalar orasidagi farqlar chegarasining aniq bo'lishi ularning o'zaro aralashib ketishiga yo'l qo'ymaydi.

Har bir narsa o'z taraqqiyotida paydo bo'lish, rivojlanish va yemirilib boorish jarayonlarini bosib o'tadi. Ushbu jarayonlarda narsalar mazmun – mohiyat va shakli – shamoyili jihatdan o'zgarmaydi hamda u o'zida o'zligicha qoladi. Mantiqda buni nisbiy barqarorlik deyiladi.

Ayniyat qonuni bo'yicha bahs – munozaralarda, muammolar muhokamasida har bir fikr aynan bir ma'noda ishlatilishi talab qilinadi. Uning formulasi quyidagichadir: **A – A** yoki **A – bu A dir**

Ko'pincha Ayniyat qonunida omonimlar chalg'ituvchi bo'lib keladi. Ayrim holatlarda bu bilib yoki bilmasdan amalga oshiriladi.

Masalan: Mol – bu uy hayvoni. Agar magazinga mol keldi deyilsa, demak bunda mantiqan olganda magazinga uy hayvoni keldi degan xulosa kelib chiqadi. Bu esa bir tomonlama xarakterdagi be'mani xulosadir. Chunki bu dastlabki tushunchaga hech qanday aloqasi bo'lmagan qandaydir boshqa niyatda aniq tushunchani atayin o'zgartirishdir.

Bu misoldagi dastlabki tushunchaga hech qanday aloqasi bo'lmagan qandaydir boshqa niyatda aniq tushunchani atayin o'zgartirish shu shaxsning johilligi, madaniyati pastligi yoki ichi qoraligidan dalolat beradi. Odatda odamlar bahsda o'z fikrlarini o'tkazish uchun ko'pincha shundau qilishadi. Shuning uchun odamni bir narsada asossiz ayblashganda ayblayotgan odamdan “nimaga bunday” deb emas, balki “nima uchun” yoki “nima maqsadda” ayblayotganligini so'rash kerak bo'ladi. Mantiqda dastlabki tushunchaga hech qanday aloqasi bo'lmagan qandaydir boshqa niyatda aniq tushunchani atayin o'zgartirish **sofistikada** yaqqol kuzatiladi. Sofizm yunonchada “jo'rta xato qilish” degan ma'noni anglatadi.

Masalan: Agar sen bir narsani yo'qotmagan bo'lsang, demak u albatta senda bo'ladi. Sen shoxingni yo'qotmagansan. Demak sen shoxdorsan.

Bunda ikkinchi gap xato xulosaning natijasidir.

Sofizm xulosalari odatda bu mantiqda Ayniyat qonuning buzilishining yaqqol namunasidir. O'zaro muloqotda bunday noto'g'ri holatlarga yo'l qo'ymaslik uchun fikrning aniq bir doirada yoki yo'nalishda borishini nazorat qilish lozim bo'ladi.

Gaplarning o'zgacha ma'noda qo'llanilishi va qabul qilinishi odatda bizning madaniyatga xos bo'lgan askiya, tuyuq va turli so'z o'yinlarida kuzatiladi.

Misollar:

- Oyog'iga bosh urib yodbordi;
- Ohim o'tiga falak yondi;
- Matohingni rangini yashirma.

Ayniyat qonuni fikrlarning ma'no – mazmun, vaqt, munosabat aynanligini talab qiladi. Ayniyat qonuni bo'yicha fikrlar mazmun – mohiyat jihatdan toza va o'zgarmasdan qolishi muhim ahamiyatga egadir.

9. Nozidlik qonuni

Narsa – hodisalar bir vaqtning o'zida bir – biriga zid ikkita zid xislatga ega bo'lishi mumkin emas.

Nozidditlik qonuniga binoan bir buyum haqidda buyum haqida aytilgan ikkita qarama – qarshi fikr ayni bir vaqtning o'zida va ayni bir nisbatda birdaniga chin bo'lishi mumkin emas. Uning formulasi: $A - A$ dir ($A - A$ emasdir) bo'lishi mumkin emasdir.

Nozidditlik qonuni aslidaziddiyatga yo'l qo'ymaslikni talab etuvchiva fikrdagiziddiyatning oldini olishga qaratilgan qonundir. Odatda to'g'ri tafakkurda zidiyatli jihatlar bo'lmaydi. Dialektik ziddiyat ob'ektiv xarakterga ega bo'lib, u tabiat va jamiyatda rivojlanish jarayonining manbaidir. Bu olamning realligi aslida ziddiyatlidir. Hayotdagi ziddiyatlarinsonni to'g'ri fikrlashga majbur qiladi. Agar inson fikrlarida ziddiyatlar bo'lsa bu kishi o'z muammolaridan qutula olmaydi. Bordinyu fikr ikkita narsaga nisbatan olingan bo'lsa, bu bir vaqtning o'zida ham to'g'ri ham noto'g'ri bo'ladi.

Masalan:

- Balxash ko'li bir vaqtning o'zida Issiqko'lga nisbatan katta bo'lsa, Baykal ko'liga nisbatan kichikdir;
- Iskandar bir vaqtning o'zida qari odamdan yoshdir va shu Iskandar yosh odamga nisbatan qaridir.

Vaqt, munosabat va fikr nisbatlariningsaqlanib qolishi ziddiyat qonunining amal qilishi uchun zaruriy shart – sharoitdir. Bir – biriga zid ikkita fikr bir vaqtning o'zida noto'g'ri bo'lishi mumkin.

Masalan:

- Birinchi kurs talabalarining barchasi a/lochi va Birinchi kurs talabalarining barchasi a/lochi emas;
- Yomg'ir bir vaqtning o'zida bir joyda ham foydali va ham zararli bo'lishi mumkin emasdir.

Masalan:

- Shakar bir vaqtning o'zida ham shirin va ham achchiq bo'lishi mumkin emas;
- Suv bir vaqtning o'zida ham juda sovuq va juda qaynoq bo'lishi mumkin emas.

Tafakkurda fikrlarning aniq va izchil bo'lishi unda mazmunan va shaklan ziddiyatga yo'l qo'ymaydi. Yaxshi bir ma'noli gap bir vaqtning o'zidayomon gap bo'lishi mumkin emas. Yoki juda qattiq tosh bir vaqtning o'zida juda yumshoq bo'lishi mumkin emas.

Nozidditlik qonuni shartlarini bilish suhbatdoshfikrining mantiqsizligini bilishga ilmiy – mantiqiy taxlilning izchil va aniq bo'lishini ta'minlashdir.

Nozidditlik qonuniga amal qilmaslikshu insonning johilligi, haqiqatdan qochishi yoki niyati buzqligidan dalolat beradi.

Masalan:

- Gapi gapiga to'g'ri kelmaydi;
- O'zining gapini eslay olmadi;
- Bir narsa bo'yicha ikki xil gapiradi.

Inson fikridagi ziddiyatlar odatda tashqi dunyo ziddiyatlarni aks ettiradi. Chunki inson ijtimoiy mavjudoddur. Atrofdagi ijtimoiy muhit inson ongi orqali uning

dunyoqarashini shakllantiradi va natijada inson ongi tashqi olam ta'sirini oynadek aks ettiradi.

Ayrim hollarda fikrlarimizning buzilishi mumkin. Chunki, muhokama yuritganimizda hohlaymizmi, yo'qmi ziddiyatli vaziyatga duch kelamiz. Darhaqiqat, mavjudlikning o'zi ziddiyatlidir. Fikrimiz esa, mazkur mavjudlik o'zgarishi, rivojlanishi bilan o'zgarib, rivojlanib, boyib, chuqurlashib, teranlashib boradi.

To'g'ri fikrlar esa, doimo o'zgarmas, muayyan mavjudodlik maromining nisbatan ustivor, sobit jihatlarining ifodasi bo'lishi zarur. Rivojlanayotgan voqelikning har lahzada boshqa - boshqa ta'rif va tavsiflarga ega bo'lishi, mazkur munosabatni fikrlarimizga nisbatan ham tadbiq etishini, ya'ni fikrlarimizning ham shunga muvofiq o'zgarib turishi lozimligini tan olishini taqozo qiladi.

Ziddiyatsizlik qonuni ziddiyatga yo'l qo'ymaslikni talab qiluvchi, fikriy ziddiyatning oldini olishga qaratilgan qonundir.

Mantiqiy tafakkurda ziddiyatning bo'lmasligini noto'g'ri talqin qilish, metafizik tushinish ob'ektiv reallikning muhim hislati bo'lishi dialektik qarama - qarshilikning inkor etishga olib keldi.

Real hayot ziddiyatlari, ya'ni dialektik ziddiyat bilan mantiqiy tafakkurdagi ziddiyatlarni bir-biridan keskin farq qilish, ularni almashtirib yubormaslik kerak.

Hayot ziddiyati bu ob'ektiv reallikda, tabiat va jamiyatda mavjud bo'lgan predmet, hodisalarga oid ichki ziddiyatni, ya'ni dialektik ziddiyatni ifodalaydi. Bu ob'ektiv ziddiyat shundan iboratki, predmetlar va hodisalar har doim rivojlanish va o'zgarishda, bir predmet vaqt o'tishi bilan o'zgarib, o'zining ma'lum holatini, hislatlarini yo'qotadi, boshqa narsalarga aylanib ketishi ham mumkin. Demak, dialektik ziddiyat butun borliqning va hatto insoniyatning ham o'zgarish va rivojlanishni ifodalaydi. Dialektik ziddiyat rivojlanish manbaidir.

Inson bilimlari va fanning rivojlanishi ham shu ziddiyat asosida yuzaga chiqadi. Dialektik ziddiyat demak, bu reallikning, moddiy olamning ob'ektiv ziddiyatidir.

Dialektik ziddiyat ham inson fikridagi mantiqiy qonun - ziddiyatsizlikni nazarda tutadi. Ya'ni, hayot ziddiyatini tartibli, izchil, pala-partish bo'lmagan, bir—biriga zid bo'lmagan fikrlarda, muhokama, xulosalardagina to'g'ri aks ettirish mumkin emas.

Aks holda esa, ob'ektiv hayotni unga xos bo'lgan real xususiyatlarini, jumladan, ziddiyatni ham to'g'ri aks ettirish, demak, haqiqatni bilib olish mumkin emas.

To'g'ri fikrlarning ziddiyatsiz bo'lishi ma'lum shart-sharoitni taqozo qiladi. Bir vaqtning o'zida bir masalaga nisbatan bir ma'noda ikki zid fikrning to'g'ri bo'lishi mumkin emas. Lekin turli ma'noda yoki turli vaqtda turli nisbatda ishga zid fikrning mavjud bo'lishi hamda to'g'ri bo'lishi mumkin. Chunki, yuqorida aytganimizdek, predmet, hodisa vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin, hatto u qarama - qarshi xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin.

Masalan: Orol ko'li- katta ko'l (Issiq ko'lga nisbatan)

Orol ko'li - kichik ko'l (Boyqalga nisbatan). Orolning suvi ko'p (40 yil avval)
Orolning suvi oz (hozirgi kunda).

Bu hukmlar ham to'g'ri, haqiqatdir, chunki ular turli nisbatda, turli vaqtga nisbatan kelayotir.

Hakimov yosh odam.

Hakimov qari odam.

Bu hukmlar ham bir vaqtning o'zida to'g'ri bo'lishi mumkin, agarda Hakimov nomi bilan ikki shaxs tushunilsa, yoki Hakimovning 20 yoshlik chog'i va 70 yoshlik chog'lik haqida gap borsa. Bunday holda ikki hukm o'rtasida ziddiyat yo'q.

Vaqt fikr, munosabat, nisbat birligining saqlanishi ziddiyat qonunining amal qilishi uchun zarur shart - sharoitdir.

Ya'ni, ziddiyat qonuni ayni bir vaqtda ayni bir nisbatda, ayni bir predmet haqida aytilgan ikki qarama-qarshi fikrning chin bo'lishi mumkin emasligini ta'kidlaydi, Lekin, bundan bu ikki fikrning biri yolg'on bo'lsa, ikkinchisining albatta chinligi kelib chiqadi, degan gap emas, masalan:

«Bizning ikkinchi kursda hamma a'lochi». «Bizning ikkinchi kursda hech kim a'lochi emas» bu hukmlarning har ikkisi ham noto'g'ridir. Ziddiyat qonuni zaruriy shart-sharoitlar mavjud bo'lsa, ikki zid hukmdan birining chinligidan ikkinchisining yolg'onligi namoyon bo'lishinigina qayd qiladi. Tafakkur rivojlanishida inson bilimining o'sib borishida turli sharoit, turli nisbatda qarama-qarshi, ob'ektiv reallikni aks ettirishi tabiiydir.

Yomg'irni, umuman zararli yoki foydali deb bo'lmaydi. Masalan, ma'lum qurg'oqchilikdan so'ng yoqqan yomg'ir bug'doy uchun nihoyatda foydalidir.

Lekin bug'doyni yig'ib-terib olish davrida yoqqan yomg'ir, shubhasiz zararlidir.

Mantiqiy noziddlik qonuni, u amal qiluvchi sharoitni yaxshi bilishlik, raqibning, suhbatdoshning fikrlaridagi mantiqsizlikni tezda ochib tashlash, ilmiy tahlilni izchil va chuqur mantiqiy asosda olib borish imkonini beradi.

Mantiq qonunlarini, jumladan, aniqrog'i ziddiyatsizlik qonunlari talablarini ko'rib, bilib turib, ataylab buzish - bu insonda ma'lum g'araz maqsadlarning mavjudligidan yoki haqiqatni e'tirof etishdan qochishga bo'lgan urinishdan dalolat beradi, lekin, ayrim hollarda fikrdagi ziddiyatlar ochiqdan - oydin ko'zga ko'rinib turmay uni aniqlab olish ancha mahorat va o'tkir mantiqiy zehn talab qiladi.

Chunki, bu ziddiyat boshqacha so'z va fikrlar orasida yashirin bo'ladi.

Ziddiyatsizlik qonuni A va A.

10. Uchinchi istisno qonuni

Uchinchi istisno qonuni — formal mantiqning asosiy qonunlaridan biri.

Dastlab Aristotel ifodalab bergan. Bu qonunga ko‘ra, birbiriga zid bo‘lgan ikki fikrdan biri chin, ikkinchisi xato, uchinchi fikrga o‘rin bo‘lishi mumkin emas. Bu qonun qaysi fikrning chinligini ko‘rsatib bera olmaydi, lekin qaysi fikrdan biri to‘g‘ri bo‘lsa, keyingisi albatta noto‘g‘riligini bildiradi. Uchinchi istisno qonuniq. "A yoki V yoki V emas" formulasi orqali ifodalanadi. Uchinchi istisno qonuniq. bilish va muhokama yuritish jarayonida to‘g‘ri xulosa chiqarish uchun muhim bo‘lib, o‘zaro zid qarashlarni aralashtirib yuborishga yo‘l qo‘ymaydi.

Uchinchi istisno qonuni mantiqiy ziddiyat qonuni bilan uzviy bog‘liq. Aristotel o‘zining «Metafizika» asarida uchinchi istisno qonunini quyidagicha ifodalagan: «Teng ravishda ikki ziddiyatli fikr orasida hech qanday oraliq bo‘lishi mumkin emas, nimagadir nisbatan esa nima bo‘lganda ham uni tasdiq yoki inkor etishi zarur».

Bu qonun asosida ob‘ektiv reallikdagi predmet, hodisalar o‘rtasidagi farq va tafovut, predmetlarning bir-biridan mustaqil holda mavjudligi yotadi. Bu tafovut reallikda turli shaklda uchraydi, bir-biriga zid ikki holat, ya‘ni bir-birini inkor qiluvchi ikki imkoniyat shaklida mavjud bo‘lsa, bunday holat tafakkurda uchinchi istisno qonuni shaklida ifodalanadi.

Masalan, qo‘limizda qog‘oz hozirda yoki oq yoki oq emas, uchinchi holatning mavjudligi mumkin emas. Uyimizning oldidagi daraxt yoki qarag‘ay, yoki qarag‘ay emas, o‘rtacha imkoniyat mavjud emas. Shuningdek, bugun yomg‘ir yog‘adi yoki yog‘maydi. Eshikdan kirib kelgan odam yoki ayol, yoki ayol emas, erkak.

Uchinchi istisno qonunining ifodasining quyidagicha: bir-biriga zid bo‘lgan hukmdan biri hamisha chin bo‘lib, ikkinchisi xatodir, uchinchisining bo‘lishi

mumkin emas. Bu formula aniqroq va to'laroq qilib ifodalanganda u quyidagicha shaklga kiradi:

Bir predmet haqidagi ikki fikr bir vaqtning o'zida va bir nisbatda birdaniga chin ham, xato ham bo'la olmaydi, biri chin bo'lsa, ikkinchisi yolg'on bo'ladi, uchinchi imkoniyat mavjud emas.

Yuqorida ko'rganimizdek, ziddiyat qonuni ikki zid fikrning xatoligi haqida hech qanday xulosa bermaydi.

Bu qonunning talabiga binoan bir predmet haqidagi ikki zid fikr bir nisbatda va bir vaqtda barobar chin bo'la olmaydi, biri chin bo'lsa, ikkinchisi xatodir. Lekin, bu qonun bir-birini inkor etuvchi imkoniyyatni bildirmaydi, shuning uchun bu zid fikrdan, ya'ni birining xatoligidan ikkinchisining chinligi kelib chiqmaydi, har ikkisi ham xato bo'lishi mumkin.

Masalan: Bu gul sariq.

Bu gul yashil.

Bunda ziddiyat qonuni bo'yicha biri chin bo'lsa, ikkinchisi, albatta yolg'ondir, faqat har ikki hukm ham mazkur gul haqida bir vaqtda aytilgan bo'lsa. Lekin, biri chin bo'lmasa, ikkinchisining yolg'on bo'lishi shart emas, ikkinchisi ham yolg'on bo'lishi mumkin, ya'ni bu ikki xususiyat - «sariq» va «yashil» o'rtasida boshqa xislatlarning ham bo'lishi mumkin, ya'ni qizil, ko'k, oq va boshqalar. Lekin, gul sariq, gul sariq emas hukmlari munosabatda faqat ziddiyat qonunigina emas, uchinchisi istisno qonuni ham amal qiladi ya'ni, gul yoki «sariq» yoki «sariq emas»- uchinchisi bo'lishi mumkin emas, chunki qolgan barcha ranglar «sariq emas» mazmuniga kiradi. Zid fikrlarning bunday munosabati alternativ shaklini oladi: «sariq» yoki «sariq emas». Xullas, uchinchisi istisno qonuni tushunchaning ikki zid munosabatini ifodalaydi.

Agarda zid munosabatlar tushunchaning to'liq hajmini qamrab olmasa, ikki zid xislatlardan tashqari, boshqa xislatlarning ham mavjudligi ma'lum bo'lsa, unda uchinchi istisno qonuni amal qila olmaydi.

Masalan: Bu geometrik shakl- doira.

Bu geometrik shakl- to'rtburchak.

Biz hukmlar munosabatida ziddiyat qonunigagina amal qilamiz. Vaholanki, biri chin bo'lsa, ikkinchisi albatta chin emasdir Lekin har ikkisi ham yolg'on bo'lishi va hukmda keltirilgan uchinchi bir geometrik shakl, ya'ni romba, ellips, ko'pburchak va boshqalar chin bo'lishligi mumkin. Chunki, bu yerda «doira» va «to'rtburchak» tushunchalari «geometrik shakl» tushunchasini to'lig'icha qamrab olmaydi, balki bir qismigina o'z ichiga oladi.

Lekin bu geometrik shakl- doira va bu geometrik shakl doira emas hukmlari munosabatida ziddiyat qonunigagina emas, balki uchinchi istisno qonuni ham amal qiladi, chunki har ikkisidan albatta biri chin, biri xato, uchinchi imkoniyat berilmagan «yoki-yoki», ya'ni «doira» va «doira emas» tushunchalari faqat geometrik shakl tushunchasining hajmini to'la qoplaydi. Qolgan barcha geometrik shakl «doirasi emas» tushunchasi hajmiga kiradi.

Albatta, uchinchi istisno qonunining amal qilishi uchun olingan zid tushuncha yoki xususiyatlarning biri musbat, biri manfiy bo'lishi yoki zid hukmlarning biri tasdiq, ikkinchisi inkor bo'lishi shart emas. Olingan ikki zid tushuncha yoki hukm hajm jihatidan bir-birini to'liq inkor etishi zarur, shundagina ikki imkoniyat ifodalangan bo'ladi, aks holda tafakkur boshqa imkoniyatlardan ham foydalanish mumkin.

Masalan: Bu jism sodda jism. Bu jism murakkab jism. Bu hukmlar munosabatida har ikkisi barobariga chin va barobariga xato bo'la olmaydi. Bunda musbat hukmlar yordamida ikki bir-biriga zid imkoniyatdan biri ifodalangan,

uchinchisining bo‘lishi mumkin emas. Chunki, har qanday jism yoki sodda yoki murakkab bo‘ladi.

Shekspirning «Gamlet» tragediyasidagi bosh qahramon Gamletning «Yo o‘lim, yo hayot» deb boshlanuvchi monologi ham ikki imkoniyatni ta’kidlashga asoslanadi. Bu yerda uchinchi holatning mavjudligi mumkin emas. Bu munosabatni zid tushunchalar va qarama-qarshi tushunchalar misolida ko‘rish mumkin.

Zid tushunchalar (hukmlar) bir predmet haqidagi tasdiq va inkor fikrni bo‘ldirsa, tushunchalar o‘rtasidagi qarama-qarshilik munosabati shaklan sig‘ishmaydigan va bir-birini inkor etuvchi ikki musbat fikrni bildiradi. Tushuncha ham hajm, ham mazmun jihatidan faqat ikki bo‘lakdan, ya’ni xislatdan tashkil topgan holatdagina zidlik va qarama-qarshilik munosabati bir-biriga mos keladi. Bunday holda qarama-qarshi tushuncha yoki hukmlar ikki imkoniyatni ifodalaydi va bunday qonun ham amal qiladi.

Masalan; Choy shirin va choy shirin emas.

Bu zidlik munosabati bo‘lib, maza-ta’mining hajmi faqat shu ikki «shirin emas»-musbat va manfiy tushunchalardan iborat (o‘rtada boshqa imkoniyat yo‘q). Bu holatda ziddiyat va uchinchisi istisno qonuni amal qiladi.

Choy shirin, choy chuchuk hukmlari (ikki tasdiq, musbat belgilari) qarama-qarshilik munosabatida bo‘lib, bu holatda faqat ziddiyat qonuni amal qiladi. Har bir konkret holatda - qattiq - yumshoq, uzun – kalta, urush - tinchlik kabi munosabatlarda zidlik va qarama – qarshilik holati mos keladi.

Uchinchisi istisno qonuni prinsipsizlikni, kelishmovchilikni va murosasizlikni, xuddi bir masala yuzasidan aytiladigan va bir - biri bilan sig‘ishmaydigan nuqtai-nazarlarni aralashtirib yuborishni, ya’ni umumiy qilib aytganda, mantiqsizlikni fosh etishda muhim ahamiyatga ega, uchinchisi istisno qonuni asosida fikr yuritishda vaqt, nisbat, predmet birligiga rioya etish bilan birga zidlik va qarama-qarshilikning mazkur konkret holda qanday munosabatda ekanini bilish va nazarda

tutish zarur. Aks holda uchinchi istisno qonuni o'z kuchini yo'qotadi, ya'ni uchinchi imkoniyatni nazarda tutmagan holda tushunchalar, munosabatlarni sun'iy ravishda, realikka mos kelmagan holda alternativa shaklida ifodalash holatlari ham uchrab turadi. Bu ham fikrning izchilligiga zarar yetkazadi va mantiqsizlikka olib keladi.

Bu qonun ham mantiqning boshqa qonunlari kabi to'la chin fikrlarni aniqlashning muhim sharti sifatida haqiqatni topishga yordam beradi.

Uchinchi – istisno qonuni. Bu qonun fikrlar o'rtasidagi zid munosabatlarni ifodalaydi. Agarda zid munosabatlar fikrning to'liq mazmunini qamrab olmasa, ikki zid belgidan boshqa belgilarning ham mavjudligi ma'lum bo'lsa, unda uchinchi istisno qonuni amal qilmaydi.

11.Yetarli asos qonuni

Yetarli asos qonuni. To'g'ri fikrlashga xos bo'lgan muhim xususiyatlardan biri isbotlilik, ishonchlilikdir. Fikrlash jarayonida buyum va hodisalar haqida chin muhokama yuritibgina qolmasdan, bu muhokamaning chinligiga hech qanday shubha bo'lmasligi uchun uni isbotlashga, asoslashga harakat qilinadi. Bunda chinligi avvaldan ma'lum bo'lgan va o'zaro mantiqiy bog'langan mulohazalarga asoslaniladi, ya'ni bayon qilingan fikrning chinligi avvaldan ma'lum bo'lgan, chinligi tasdiqlangan boshqa bir fikr, mulohaza bilan taqqoslanadi. Tafakkurning bu xususiyati etarli asos qonuni orqali ifodalanadi. Inson tafakkuriga xos bo'lgan bu qonunni birinchi marta nemis faylasufi va matematigi G. Leybnits ta'riflab bergan. Uning ta'kidlashicha, barcha mavjud narsalar o'zining mavjudligi uchun etarli asosga ega. Har bir buyum va hodisaning real asosi bo'lgani kabi, ularning in'ikosi bo'lgan fikr-mulohazalar ham asoslangan bo'lishi kerak. Etarli asos qonunining bu talabi quyidagi formula orqali ifodalanadi: «Agar V mavjud bo'lsa, uning asosi sifatida A ham mavjud». Etarli asos qonunida to'g'ri tafakkurning eng muhim xususiyatlaridan biri bo'lgan fikrlarning izchillik bilan muayyan tartibda bog'lanib kelish xususiyati ifodalanadi. Bu qonun avvalgi ko'rib o'tilgan qonunlar bilan o'zaro bog'liq holda amal qiladi. Fikrlash jarayonida berilgan mulohazaning chinligini asoslash uchun keltirilgan chin mulohazalar mantiqiy asos deb, berilgan mulohazaning o'zi esa mantiqiy natija deb yuritiladi

Mantiqiy asos bilan ob'ektiv, haqiqiy real asosni aralashtirib yuborish mumkin emas. Asos va natija orasidagi mantiqiy bog'liqlikni sabab va oqibat aloqadorligidan farqlash zarur. Masalan, «Bu kishi bemor», degan mulohazani «U shifoxonada davolanyapti», degan fikr bilan asoslash mumkin. Aslida shifoxonada davolanish dastlabki mulohazaning sababi emas, balki oqibatidir. Ko'rinib turibdiki, mantiqiy asos hamma vaqt ham hodisaning sababi bilan mos kelmaydi. Fikrlarning etarli asosga ega bo'lishligining ob'ektiv manbai faqat sabab-oqibat munosabatinigina emas, shuningdek, fikrning izchilligi, asoslanganligini, isbotlangan bo'lish xususiyatlarini ham, ya'ni ob'ektiv mazmuni sabab-oqibat

munosabatlaridan tashqarida bo'lgan boshqa munosabatlarni ham o'z ichiga oladi. Fikr-mulohazalarni asoslash murakkab mantiqiy jarayon bo'lib, unda bir yoki undan ortiq o'zaro bog'langan muhokamalar tizimidan foydalaniladi. Keng ma'noda biror mulohazani asoslash deganda, shu mulohazaning chinligini tasdiqlovchi ishonchli va etarli dalillarning mavjudligini aniqlash tushuniladi. Bu ishonchli va etarli dalillarni shartli ravishda ikki guruhga: empirik va nazariy asoslarga bo'lish mumkin. Bulardan birinchisi asosan hissiy bilish, tajribaga asoslansa, ikkinchisi aqliy bilish, tafakkurga tayanadi. Empirik va nazariy bilimlarning chegarasi nisbiy bo'lgani kabi, empirik va nazariy asoslar o'rtasidagi farq ham nisbiydir. Insonning shaxsiy tajribasi fazo va zamonda chegaralangan bo'lib, sezgilari bergan ma'lumot esa hamma vaqt ham to'g'ri bo'lmaydi. SHunga qaramasdan, mulohazalarni empirik asoslashning ahamiyati katta, chunki bilish jonli hissiy mushohadadan, bevosita kuzatishdan boshlanadi. Hissiy tajriba insonni tashqi olam bilan bog'lab turadi. Nazariy bilim esa empirik bazisning ustqurmasi hisoblanadi. Umumiy-chin mulohazalar sifatida fanlarning qonun-qoidalaridan, tushunchalarning ta'riflaridan, shuningdek, aksiomalardan foydalaniladi. Bularning muhim xususiyatlaridan biri bo'lgan fikrlarning izchillik bilan muayyan tartibda bog'lanib kelish xususiyati ifodalanadi. Bu qonun avvalgi ko'rib o'tilgan qonunlar bilan o'zaro bog'liq holda amal qiladi. Fikrlash jarayonida berilgan mulohazaning chinligini asoslash uchun keltirilgan chin mulohazalar mantiqiy asos deb, berilgan mulohazaning o'zi esa mantiqiy natija deb yuritiladi

Shuningdek, fikrning chinligini tasdiqlamoq uchun har safar bevosita faktni ko'rsata berishga hech qanday zaruriyat ham yo'q. Insonning tabiat qonunlarini bilishdan maqsadi tajribada uchragan har bir ayrim voqeaga ko'r-ko'rona osilib olishdan iborat emasdir.

Inson ayrim buyumlarni yanada yaxshiroq bilishi va bu yakka- yakka buyumlar haqidagi fikrlarni mantiqiy jihatdai isbotlash uchun, yuqorida ko'rsatilganidek, umumiydashgan fikrlardan foydalaniladi. Masalan, temir, mis, alyuminiy

kabilarning elektr tokini o'tkazish haqida konkret holdagi umumiy fikrni bilishimiz kifoyadir.

Fikrlash – bu turli fikrlarining ichki bog'lanishi asosida tashkil topuvchi fikrlar tizmasidir. Lekin bu tizma bo'lak- bo'lak holda ikki fikrning mantiqiy asos va mantiqiy natija – oqibat shaklida keluvchi fikrlarning tizimidan tashkil topadi. Boshqa fikrlarning—hukmlarning to'g'riligini asoslash uchun keltiriluvchi hukmlar mantiqiy asos deb yuritiladi. Lekin, mantiqiy asosni ob'ektiv haqiqiy real asos bilan aralashtirib yubormaslik va ularni bir - biridan doimo farq qila bilish kerak.

Real asos, bu tabiat va jamiyatdagi, ob'ektiv reallikdagi predmet, hodisalarning kelib chiqishini, mavjudligini belgilovchi asos - sababidir.

Mantiqiy asos tafakkurgagina xos bo'lsa-da, u ob'ektiv reallik' xususiyatini va real asosini ifodalaydi.

Ma'lumki, ob'ektiv reallik predmet va hodisalar bog'lanishining uzluksiz tizmasidan tashkil topadi.

Bu bog'lanish hamda bu tizma ichki qonuniyat asosida vujudga keladi va mavjuddir. Bu bog'lanishning eng muhim shakli sababiy boglanish, sabab- oqibat bog'lanishidir.

Ob'ektiv predmetlar, hodisalar tizmasida, umuman, boshqa yana bir hodisani keltirib chiqaradigan sabab, kelib chiqqani, ya'ni vujudga kelgan hodisa esa oqibat deyiladi.

Sabab va oqibat munosabati predmet, hodisalar tizmasidan ajratib olinsa, bu ikki predmet o'rtasidagi bog'lanishdan iborat, ya'ni umumiy bog'lanishidan tashkil topganligi ma'lum bo'ladi.

Sabab vaqt jihatidan oqibatdan oldin keladi va uni vujudga keltiradi. Lekin, oldinda keluvchi har bir hodisa undan keyin keluvchi hodisa bilan sababiy bog‘lanishda bo‘ladi va albatta, uning sababi bo‘ladi, degan hulosani keltirib chiqarmaydi.

Ob‘ektiv predmet, hodisalarning bunday bog‘lanishlari inson tajribasida va uning ongida million marotaba asos va xulosa shaklidagi boglanishda aks etib qolgandir. Insonning keng mulohazasi, muhokamalari bu o‘zaro bog‘langan fikrlarning, tushuncha va hukmlarning uzluksiz tizmasidan iboratdir. Bu tizmada bir fikr ikkinchisiga nisbatan asos, ya’ni sabab bo‘lib keladi.

Biz har doim ma’lum chin fikrlardan ikkinchi, chinligini isbotlash zarur bo‘lgan fikr uchun asos, ya’ni sabab sifatida foydalanamiz. Bu asos yordamida chinligi isbotlangan xulosa- fikrning o‘zi boshqa, hali chinligi noma’lum fikr uchun asos sifatida foydalaniladi.

Demak, fikrlar tizmasida uzluksiz asoslar va xulosalar, ya’ni natijalar tizmasidan tashkil topadi.

Ob‘ektiv reallikdagi sabab - oqibat munosabatlari murakkabdir. Bir sabab bir necha oqibatni keltirib chiqarish yoki bir necha sabab natijasida bir oqibat kelib chiqishi hollari hech kam emas. Bu murakkab munosabatlar ham mantiqiy tafakkurda aks etadi.

Lekin, yetarli asos qonuni har qanday aytilgan fikr uchun keltirilgan asosning yetarli bo‘lishligini talab etadi, chunki keltirilgan asos mazkur fikr uchun yetarli bo‘lmasligi, chinligi uchun qo‘shimcha asoslarga muhtoj bo‘lishi mumkin.

Fikrlarning yetarli asosga ega bo‘lishligining obektiv manbai, faqat real sabab-oqibat munosabatigina emas, fikrning izchilligi, asoslanganligi, isbotlangan bo‘lishlik xususiyatini, ob‘ektiv mazmuni sabab oqibat munosabatidan tashqari boshqa munosabatlarni ham o‘z ichiga oladi. Chunki yuqorida ko‘rib o‘tgan misolimiz: Mis elektr tokini o‘tkazadi, chunki u metallidir yoki: Gimnastika sog‘liq

uchun foydali degan fikrni biz chunki u sport, sport esa sog‘liq uchun foydali degan fikr bilan asoslab beramiz. Bu fikrlar tizmasida sabab- oqibat munosabati emas, boshqacha munosabatlar o‘z ifodasini topgandir. Chunki, gimnastikaning inson salomatligi uchun foydali bo‘lishi uning sport turiga kirishidan kelib chiqmaydi, albatta.

Yoki: xamelion sudraluvchi, chunki u kaltakesakdir. Bu yerda xamelionning sudraluvchi ekanligi haqidagi fikrning chinligi uning kaltakesaklar turiga kirishi bilan asoslanib berilmoqda. Holbuki, xamelion kaltakesakligi, uning sudralib yurishi sababi ochiq tushuntirib berilmaydi.

Bu o‘rinda jins va tur tushunchalari munosabati sifatida ma’lum bo‘lgan mantiqdagi bog‘lanish, ya’ni hajmi jihatidan umumiyroq, kengroq bo‘lgan tushuncha bilan torroq, kichikroq tushunchalar bog‘lanishi yotadi. Bu bog‘lanish esa ob’ektiv sabab-oqibat bog‘lanishni, ob’ektiv predmet hodisalarda umumiy xususiyatlar bilan xususiy-yakka tomonlarning o‘zaro bog‘liq hollarda mavjudligini aks ettirishdir.

Yetarli asos qonuni fikrlarimizning mantiqli, tartibli, ishonarli bo‘lishi uchun nihoyatda muhim ahamiyatga egadir.

12. Tushunchaning mohiyati

Tushuncha insonning oddiy psixik bilish shakllari - sezish, idrok va tasavvurdan farq qiladi. Sezish buyumlardagi ayrim sifatlar (rang, ta'm, hid va boshqalar) ning inson ongidagi aksidir, idrok esa buyumlarning inson ongida to'la yaxlit holda in'ikos etishidir. Shuning uchun idrok sezishga nisbatan inson psixik faoliyatining murakkabroq holatidir. Masalan, biz mo'ridan chiqayotgan tutunni ko'rayotganda, bu hodisaning ko'p hislatlarini: tutunning rangini va tutun zarralarining harakatini, buruqsib chiqayotgan tutunning quyuqligini va qaysi tomonga ketayotgayli- gini, uning qancha baland ko'tarilganligini va shu kabilarni idrok qilish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Ammo inson tutunni ko'rishi bilan darrov boshqa narsani ham, ya'ni: «demak, pechkada yoki o'choqda o't yoqilyapti» deb o'ylaydi. Haqiqatda esa, ko'rish organi faqat mo'ridan chiqayotgan tutunni bildiradi va uning ko'zga ko'rinadigan ba'zi tashqi belgilarini aks ettiradi, xolos. Boshqa sezgi organlari bu hodisani aks ettirishda mutlaqo qatnashmaydi. Sezgi bilan idrok bu holatda bevosita bog'langandir.

Demak, inson pechkada yoki o'choqda yoqilgan o'tni boshqa faktlar vositasida bildi. Buning asosiy sababi tutun bilan o't orasidagi bog'lanish va munosabat borligini anglab olishdir. Idrok etilgan narsalar haqidagi bilim asosida tasavvur paydo bo'ladi. Ya'ni, idrok etilgan narsalarning obrazi ongda birdan yo'q bo'lib ketmaydi, ma'lum iz soldiradi, xotiraga yoziladi. Ma'lum sabab bilan yoki inson o'z xohishi bilan eslab qolgan narsalar obrazini yana ko'z oldida tiklashi mumkin - bu tasavvurdir. Tasavvur ayni zamonda, biz hozirda idrok qilmayotgan, lekin qachonlardir idrok etgan narsalar va hodisalarning ongimizdagi obrazlari bo'ladi. Sezgi va idrok narsalar, hodisalarning inson sezgi organlariga bo'lgan ta'siri bilan bevosita bog'lanishdir. Biz o'qituvchini ko'rayotirmiz - demak, bizda bu shaxs haqida idrok bor, u chiqib ketgan zamono.u haqdagi idrok ham tugaydi. Ammo tasavvur saqlanib qoladi, chunki bunda biz idrok etgan buyumlar obrazi ongimizda o'z «izlarini» qoldiradi. Shuning uchun idrok va tasavvurning umumiy muhim xislatlaridan biri ularning ko'rgazmali bo'lishidir. Tasavvur idrokka nisbatan yana

bir qancha o'ziga xos xislatlarga ham ega. Uning muhim xislatlaridan biri o'zimiz shaxsan idrok etmagan buyumlar obrazini ham ko'z oldiga keltirishdir. Masalan, Hindistondagi halin o'rmonlar, dengiz ostidagi qator tog'lar va shunga o'xshash holatlarni, garchi biz ularni ko'rmagan bo'lsak-da, ularning obrazini tasavvur eta olamiz. Inson tasavvur orqali hatto bir-biriga o'xshash buyumlarni umumlashtirish qobiliyatiga ham ega. Masalan, biz Sirdaryo, Amudaryo va Zarafshon daryolarni haqidagina emas, balki umuman daryo, umuman teplovoz, umuman samolyot, kosmik kema va boshqalarning umumiy obrazlari haqida tasavvurga ega bo'la olamiz. Shunday qilib, sezgi, idrok va tasavvur inson ongidagi tashqi dunyo konkret buyumlarining in'ikosi bo'lib, tafakkurimiz o'sishi uchun asosiy omillardan hisoblanadi.

Tushuncha idrok, tasavvurga o'xshash konkret obrazlar bo'lmasdan, o'zining umumiyliги bilan xarakterlanadi. Tushuncha buyumlarning yakka belgilaridan uzoqlashadi va bir-biriga o'xshash ko'p narsalar va hodisalarning umumiy tomonlarini ongimizda aks ettiradi. Agar biz qo'l soatiga qarasak, bu bizning idrokimiz bo'ladi. Soatni ko'zga ko'rinmaydigan joyga qo'ysak, uning obrazi bizning xotiramizda qoladi. Bu - tasavvur qilishdir. Bizning idrokimiz va tasavvurimizda ayrim bir narsa, ya'ni qo'l soatining o'ziga xos yakka obrazlari saqlanadi. Inson o'z turmushida ko'p soatlarni: qo'l soati, devor soati, cho'ntak soatini, soatlarning turli metallardan, turli shakl va ranglarda yasalganini ko'rgan. Soat haqida ran borar ekan, inson faqat qo'l soati, cho'ntak soati yoki devor soati haqida tushunchaga ega bo'libgina qolmay, ya'ni ayrim soatlarning yakka sifatleri bilan chegaralanmay, soatlarning umumiy va muhim belgilarini tushunadi. Shuningdek, inson, jamiyat, maktab, kitob, qahramon, g'olib, fan, adabiyot, tarix va boshqalar ifoda etilgan fikrlarning hammasi ham tushunchalardir. Tushuncha materiyaning oliy mahsulı bo'lmish miyaning oliy mahsulıdır. Tushuncha inson ongida ob'ektiv voqelikdagi buyumlar bog'lanishi, holatlari va qonuniyatlarini aks ettiradi. Tushuncha inson tafakkurining maxsus shakli ekanligi uning qator xislatlarini belgilab beradi. Jumladan, har bir fanning o'ziga xos maxsus

tushunchalari butib, ular shu fanning xususiyati, hozirgi davrdagi taraqqiyot darajasi, yutug'i hamda mavqeini ko'rsatadi

Tushunchaning moddiy asosi so'zdir. So'zdan ajralgan tushuncha yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. So'zsiz tushuncha paydo bo'lmaydi. Har bir tushuncha so'z orqaligina ifodalanadi. So'z tushunchaning moddiy-material qobig'idir. Har bir so'zning moddiy tabiati kishining sezgi organlariga ta'sir etuvchi omildir. Shuning uchun ham har bir so'zning sezgi organlarimizga ta'siri tushuncha paydo bo'lishi uchun katta omildir. Tushunchaning tabiatini bilishning yagona yo'li shundan iborat. So'z tashqi ta'sirni almashtirishi mumkin. Masalan, tog' haqida biron fikr hosil qilmoqchi bo'lsak, uni albatta borib ko'rishimiz shart emas. Inson o'z tajribasi asosida «tog'» tushunchasi haqidagi bilimni miya markazidagi o'tmish bilimiga asoslanib qo'zg'atadi.

13.Tushuncha shakllanishining mantiqiy asoslari

Tushunchalar ob'ektiv olamdagi narsa – hodisalarning inson ongidagi in'ikosi va uning tahlili asosida yuzaga keladi. Tushunchalar odatda narsa – hodisalarning muhim xususiatlari va asosiy belgilarini o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi. Tushunchaning mohiyati uning asosiy belgisini ifodalaydi va uning hajmi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Tushunchalar konkret va mavhum, yakka va to'plovchi, ayiruvchi va birlashtiruvchi, musbat va manfiy, nisbatli va nisbatsiz turlarga bo'linadi.

Tushunchalar tildagi so'zlar orqali ifodalanadi. Mantiqda til konkret nutq hodisalari (ayrim gaplar, hikoyalar, bir necha kishining suhbatlari va shu kabi), jumladan, og'zaki yoki mexanik usulda takrorlanadigan va yozuv orqali qayd etiladigan nutq hodisalarida mavjud bo'ladi. Ko'plab nutq hodisalarining struktur xususiyatlarini taxlil qilish, qiyoslash va umumlashtirish muayyan tilda mavjud bo'lgan elementlar va ular o'rtasidagi munosabatlar majmuini yaxlit murakkab belgi tizimi sifatida anglash va tavsiflash imkonini beradi. Hozirgi davrda turli millat, elat va qabilalarga tegishli 2500 dan 5000 tagacha (ba'zi manbalarda 3000–7000 oralig'ida) jonli til borligi ma'lum. Ularning har birida barcha tillar uchun umumiy bo'lgan ba'zi universal struktur xususiyatlar ko'zga tashlanadi. Lisoniy tizim nuqtai nazaridan tilning bunday universal xususiyatlari sifatida barqarorlashgan ko'plab til belgilari – so'zlarning va ulardan foydalanish bo'yicha umumiy (grammatik) qoidalarining mavjudligi; so'zlar tarkibida tilning eng qisqa (kichik) tovush birliklari – fonemalarning ajratilishi kabilarni ko'rsatish mumkin. Ayrim olingan so'z doirasida fonemalar bir yoki bir necha bo'g'inga birlashadi. Tilning kamroq umumiy bulgan struktur xususiyati alohida so'zlar doirasida yanada kichikroq fonetik-semantik qismlar – morfemalarning ajralishidir. Nutq jarayonida har qanday nutq hodisasining gaplar tashkil etishi har qanday tovush tilining universal xususiyati hisoblanadi. Umumiy xususiyatlar doirasida turli xil tillarda ularni tashkil etuvchi elementlarning cheksiz variantlashuvi va bu elementlarning nutq jarayonidagi o'zaro munosabati kuzatiladi.

Til mehnat va ijtimoiy ong bilan birgalikda bir-biriga o‘zaro bog‘liq bo‘lgan, insonni hayvondan farqlovchi 3 ta eng muhim xossalardan birini tashkil etadi. Ushbu hossalardan ichida mehnat muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u jamiyat mavjudligining moddiy asosi hisoblanadi.

Tilning tafakkur, ijtimoiy ong bilan aloqasi nihoyatda uzviy, chambarchasdir. Til belgilari – so‘zlar, so‘z birikmalari va gaplar – moddiy shakllar bo‘lib, ularda ongning ideal mahsullari – aniq tasavvurlardan tortib eng mavhum va umumlashtiruvchi tushunchalar yoki hukmlargacha obyektiv tarzda o‘z aksini topadi. Shunday qilib, til nafaqat fikrni ifodalash yoki fikr almashish vositasi, balki ijtimoiy ongda fikrlarni shakllantirish va mustahkamlash vositasi ham hisoblanadi.

Tilning, dastlabki tilning paydo bo‘lishi masalasi insoniyatni qadimgi zamonlardan beri qiziqtirib keladi. Qadimgi davrlardan boshlab tilning kelib chiqishi haqida ko‘plab nazariyalar, ta’limotlar paydo bo‘ldi. Lekin bu nazariya va ta’limotlar tilning kelib chiqish masalasini hanuzgacha uzil-kesil hal qilib bera olgani yo‘q.

Qayd etilganidek, jahon tillari o‘z grammatik qurilishi, lug‘at boyligi va boshqa jihatidan bir-biridan farq qiladi, lekin shu bilan birga ular barcha tillar uchun mushtarak bo‘lgan umumiy qonuniyatlar asosida rivojlanadi. Til davr bilan, zamon bilan hamohang ravishda o‘zgarib boradi (o‘zbek tilining qadimgi turkiy til davri bilan hozirgi ko‘rinishi chog‘ishtirilsa, bunday o‘zgarishlar qay darajada bo‘lganligi yaqqol seziladi) va ba’zan, turli ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar oqibatida, muomaladan chiqib ketishi ham mumkin. Masalan, o‘tmishda jahon madaniyati rivojiga katta hissa qo‘shgan feklar va rimliklar so‘zlashgan qadimgi yunon va lotin tillari davrlar utishi bilan muomaladan chiqib, o‘lik tillarga aylanib qolgan.

Tildagi o‘zgarishlar tabiati hamda til taraqqiyotidagi yo‘nalishlar 2 ta boshqa boshqa omil – jamiyat hayotidagi tarixiy o‘zgarishlar hamda til taraqqiyotining muayyan bosqichida uning xususiyatlar bilan belgilanadi. Til tarixining jamiyat tarixi bilan aloqadorligi tilning ichki strukturasi o‘zgarishlarida (asosan, leksika va frazeologiya sohasida), shuningdek, muayyan tilning tarkalish miqyoslari o‘zgarishida (jumladan, uning funksional uslublari taraqqiyotida) va uning lahjalarga bo‘linishi (differensiatsiyasi) darajasida namoyon

bo'lad. Fonetika va morfologiya sohalaridagi o'zgarishlar ijtimoiy hayot voqea-hodisalari bilan bevosita bog'liq emas. Til strukturasi jiddiy o'zgarishlari tillarning o'zaro ta'sirlashuvi jarayonlariga bog'liq bo'lad. Jamiyat tarixiy taraqqiyotining turli bosqichlarida tillarning lahjaviy farqlanishi darajasidagi tafovutlar til tarixining jamiyat tarixi bilan aloqadorligini belgilovchi xususiyatidir. Jamiyatning ayrim hududiy qismlarga iqtisodiy va siyosiy parchalanishi jarayonlari iqtisodiy va siyosiy birlashish jarayonlaridan ustun bo'lganda, yaxlit, bir butun tillar hududiy lahjalarga bo'linib ketadi. Aksincha, jamiyatning iqtisodiy, siyosiy birlashish jarayonlari-- hududiy parchalanish jarayonlaridan ustunlik qilgan davrlarda, lahjaviy differentsiatsiya bilan bir qatorda, adabiyotda adabiy til sifatida mustahkamlanib qoluvchi yagona umumxalq tilini yaratishga imkon bo'lad. Umumxalq milliy tilning shakllanishi tegishli millatning shakllanishi davrida ro'y beradi.

Tushuncha inson faoliyati uchun katta ahamiyatga ega. O'tgan temada aytilganiday, inson bilimi ikki turga: 1. Hissiy bilim - sezgilar orqali bilish. 2. Ratsional - aqliy bilim tafakkur orqali bilishga bo'linadi. Hissiy bilim yakka, xususiy va tasodifiy hodisalarni, ratsional aqliy bilim esa umumiy, muhim, zaruriy qonuniyatlarni biladi. Hissiyot orqali bilish mumkin bo'lmagan buyumlar mohiyatini ratsional yo'l bilan o'rganamiz. Tushuncha esa ratsional bilishning muhim shakli. Tushunchada insonning amaliy faoliyati protsessida bilib oladigan ob'ektiv voqelik qonuniyatlari o'z ifodasini topadi. Tushuncha, bir tomondan, o'tmishda do'lga kiritilgan bilimlar natijasi bo'lsa, ikkinchi tomondan, bilish durolidir. Tushuncha o'tmishda erishilgan bilim natijasi ekanligi buyumlarning umumiy muhim belgilari, xususiyatlaridan inson o'z mehnati jarayonida keng foydalanishida ko'rinadi. Tajriba asosida umumlashtirilgan natija - tushuncha mohiyati asosida yotadi. Tushuncha bilim quroli ekanligi u bizning bilimimizni yanada rivojlantirishga xizmat qilishida, narsa va hodisalarning yangi tomonlarini aks ettirishida isbotlanadi

Masalan, materiya «sezgilarimiz bilan idrok diladigan ob'ektiv reallikdir», deb ta'riflanadi. Bu tushuncha insonning ko'p yillik bilim tajribasining natijasi bo'lib,

ob'ektiv voqelikni yana ham chuqurroq o'rganish uchun katta yordam beradi. Shuning uchun dam tajriba asosida paydo bo'lgan bu tushuncha keyincha materiyaning konkret, ya'ni fizik, ximik, biologik va boshda shakllarini o'rganishga xizmat qiladi. Materiya dadidagi umumiy tushuncha yordami bilan ayrim materiylar dadidagi bilimga ega bo'lamiz. Hakidatan ham ayrim shaxs yakka, individualdir. Ammo uning organizmi umumiy fiziologik qonuniyatlarga, qon aylanishi, nafas olish, ovqat hazm qilish, ichki sekresiya faoliyati va boshda qonunlarga itoat etadi. Har bir shaxs takrorlanmaydigan individ bo'lishiga qaramay, bu umumiy qonunlarga bo'ysunadi. Shuning uchun ob'ektiv vodelikning umumiy va turli qonunlarini bilish har bir fandagi tushunchaning asosiy vazifasidir.

Demak, tabiat va jamiyat ob'ektiv qonunlarini bilish tushuncha ordali amalga oshiriladi. Tushunchalarsiz biror qonunni ifoda etish, shuningdek hamma bilimlar mezoni bo'lgan tajribani dam ilmiy asoslash mumkin emas. Tushuncha o'zining tez o'zgarishi mumkinligi, elastikligi va ma'lum vaqtlarda o'ziga zid xislatlarga o'ta olishi bilan katta ahamiyatga ega.

14. Tushunchaning mazmuni va hajmi

Tushunchaning mazmuni va hajmi. Tushunchaning mantiqiy tarkibi - uning hajmi va mazmunidir. Buyumlarning tushunchada aks etgan muhim belgilari yig'indisi tushuncha mazmunidir. Masalan, «odam» tushunchasi mazmuniga ishlab chiqarishni vujudga keltiruvchi, abstrakt fikrlash, nutq qobiliyati va hokazolarga ega bo'lgan tirik vujud xislatlari kiradi. Insoniyat jamiyati tarixi odamlarning hayotdagi voqealarga bo'lgan amaliy munosabatlariga qarab ularda tushuncha mazmunining ham doimiy ravishda o'zgarib borishi, ya'ni yangi belgilar bilan boyib, eskirgan belgilarining tushib qolishidan darak beradi. Misol uchun, «intelligensiya», «parlament», «atom», «xalqlar do'stligi» va boshqa shunga o'xshash tushunchalar mazmuni haqidagi bilimimiz ham tabiat va jamiyat haqidagi fanlar taraqqiyotiva insonning bu taraqqiyot mohiyatini chuqurroq anglab borishi natijasida o'zgaradi. Tushuncha, demak, ma'lum bir davrda tabiat, jamiyat va inson bilimlarining ayrim taraqqiyot darajasida o'z mazmunini saqlab keladi. Tushuncha mohiyatiga kiradigan bilim, tasavvurlar yig'indisiga, to'plamiga tushuncha hajmi deyiladi. Masalan, «odam» tushunchasi hajmiga o'tmishda yashagan, hozir yashayotgan va kelajakda yashaydigan hamma odamlar haqidagi bilimlar, «shahar» tushunchasi hajmiga esa bor bo'lgan, hozir mavjud va bo'lajak shaharlar haqidagi tasavvurlarimiz kiradi. Matematik mantiqda tushuncha hajmi ko'plik munosabatlaridagi elementlar, A, V, S, D harflari bilan belgilanadi. Tushuncha hajmi hisoblanishi mumkin bo'lgan bir qancha yoki behisob ko'p elementlarga ega bo'lishi mumkin. Bir tekisda ko'p nuqtalar, ko'p musbat raqamlar va boshqalar behisob tushunchalardir, quyosh sistemasi, hozirgi zamon davlatlar markaziy shaharlari tushunchalari chegarasi aniq bo'lgan tushunchalardir. Shuning uchun matematik mantiq ko'p elementlarni qamrab olgan hajmi keng tushunchani «B» harfi va unga itoat etuvchi tushunchani esa «A» harfi bilan ifodalaydi.

Tushuncha hajm va mazmun birligidan iboratdir, shuning uchun mazmunsiz hajmli va hajmsiz mazmunli tushuncha bo'lishi mumkin emas. Mantiqda tushunchalar ma'lum bir turlarda ifoda etiladi. Mantiqiy tur-to'da buyumlar uchun taalluqli

bo'lgan umumiy belgilar yig'indisidir. Tushunchalarda ifodalangan hodisalar guruhlari hajm jihatidan munosabatlariga qarab: 1. Jins guruhlari. 2. Tur guruhlari bo'linadilar. Tushuncha hajmidagi jins va tur guruhlari o'zlarining yuqori yoki quyi munosabatlariga qarab farqlanadi. Hamma vaqt jins tushunchalari tur tushunchalariga nisbatan oliy bo'ladi. Chunki jinsga hamma vaqt tur o'xshash belgilari bilan itoat etadi. Misol uchun, «maktab» va «oliy maktab» tushunchalarini olib qaraylik. Albatta, bu misolda «maktab» tushunchasi jins, «oliy maktab» tushunchasi esa tur tushunchasidir. Tushuncha hajmidagi jins va tur belgilari, jins va turning munosabati insonning buyumlarga bo'lgan munosabatiga qarab o'zgarib turishi ham mumkin. Bunday vaqtlarda tushuncha jins va tur belgilari o'z joylarini almashtiradilar. «Oliy maktab» va «universitet» tushunchalarini olib qaraylik. Bunda «oliy maktab» tushunchasi «universitet» tushunchasiga nisbatan jins, «universitet» tushunchasi esa tur bo'ladi. Ammo jins va tur bog'lanishini «maktab» va «oliy maktab» tushunchalari munosabatida ko'rib chiqadigan bo'lsak, bunda «maktab» tushunchasi jins, «oliy maktab» tushunchasi esa tur belgisini ifodalovchi tushunchaga aylanadi. Shuning uchun voqelikdagi buyumlarning ularning inson ongidagi in'ikosi natijasida hosil bo'lgan tushuncha hajmidagi jins va tur munosabatlari inson tajribasi asosida o'z holatlarini o'zgartirib turadi.

Tushuncha o'zining mazmuni va hajmiga ega. Tushunchaning mazmunini unda fikr qilinayotgan predmetning muhim belgilari to'g'risidagi axborot tashkil etadi. Masalan, «fan» tushunchasining mazmunini fanning muhim belgilari, ya'ni uning amaliyot bilan aloqada ekanligi, predmetlarning birorta sohasiga oid tushunchalar, qonunlar, prinsiplar shaklidagi ob'ektiv chin (haqiqiy) bilimlar tizimidan iborat bo'lishi, dunyoqarashning shakllanishida ishtirok qilishi va shu kabilar tashkil qiladi.

Tushunchaning hajmi esa unda fikr qilinayotgan predmetlar yig'indisini aks ettiradi. Masalan, yuqorida misol qilib keltirilgan «fan» tushunchasining hajmi mavjud barcha fanlarni: matematika, fizika, mantiq va hokazo-larni o'zida qamrab oladi.

15. Tushunchalar orasidagi munosabatlar

Tushunchaning turlari. Tushunchalar: a) ularda aks etgan narsa-hodisalarning miqdoriga, ya'ni tushuncha hajmiga; b) ularda aks etgan narsa-hodisalarning xarakteriga, mazmuniga; v) tushunchalarning mazmuni jihatidan munosabatiga; g) hajmi jihatidan munosabatiga qarab bir necha turga bo'linadi. Avvalo tushunchalar hajm tafovutiga qarab-umumiy %a yakka tushunchalarga bo'linadilar. Buyumlar guruhiga va bu guruhning belgilariga taalluqli tushuncha umumiy hisoblanadi. Buiga «samolyot», «davlat», «ko'l», «raqam» va boshqa umumiy tushunchalar misol bo'la oladi. Yakka bir buyumga bog'liq bo'lgan: tushunchalar yakka bo'ladi. Masalan: «Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat universiteti», «Abu Ali ibn Sino», «Maysaraning ishi» pesasi muallifi va boshqalar. Umumiy tushunchalar ikki va undan ortiq buyumlarni, yakka tushuncha esa bir buyumnigina aks ettiradi. Umumiy tushunchalar yakka tushunchalarga nisbatan hajm jihatidan keng, yakkalari esa tor bo'ladi. Masalan, «meva daraxti» tushunchasi «daraxt» tushunchasiga nisbatan torroqdir. Lekin biz «olma daraxti» va «meva daraxti» desak, unga «meva daraxti» tushunchasi «olma daraxti» tushunchasiga nisbatan kengroq bo'ladi. Jamlovchi tushuncha umumiy tushunchadan farq qiladi. Ya'ni jamlovchi tushunchaning belgisi yangicha belgi bo'lib, uning tarkibiga kiruvchi, jamlanuvchi elementlarda bu belgi uchramaydi. Ya'ni ma'lum o'xshash predmetlar to'plami yangi xislat kasb etadi.

Masalan, ma'lum misdordagi odamlarning ma'lum maqsadga erishib, biror umumiy masalalarni muhokama etishi «majlis»dir. Juda ko'p daraxtlar o'sgan joy yaxlit holda «o'rmon» deyiladi. Umumiy va yakka tushunchalar orasida jamlovchi tushuncha alohida o'rinni egallaydi. Bu tushuncha buyumlar to'plami yig'indisini in'ikos ettiradi. Masalan: «majlis», «o'rmon», «kutubxona» va boshqalar. Umumiy tushuncha esa yakka tushunchalarning ma'lum belgisini qaytaradi. Umumiy tushuncha buyumlarni hisoblash imkoniyatini vujudga keltiradigan xislatga ega bo'ladi. Bunga «ToshDU studentlari», «hafta kunlari» va boshqa tushunchalarni misol qilib ko'rsatish mumkin. Shu bilan birga, umumiy tushunchada hisoblash imkoniyatini bermaydigan sanoqsiz hollar ham bo'ladi. Masalan, «burchak»,

«atom», «sonlar» va hokazo. Konkret va mavhum tushunchalar. Konkret tushunchalar - bu ob'ektiv borliqda real moddiy holatda mavjud bo'lgan, sezgilar yordamida bilish mumkin bo'lgan predmetlarni aks ettiruvchi tushunchalardir. Konkret tushunchalar ularda aks etgan predmetlar belgilarini yaxlit ifodalaydi. «shahar», «jamiyat», «stadion», «haykaltarosh», «kosmonavt» va boshqa shunga o'xshashlar konkret tushunchadir. Agarda tafakkurda buyumning sifatlari, munosabatlari, belgisi ajratilib, mustaqil holda aks ettirilsa, u mavhum tushuncha bo'ladi. Mavhum tushunchada buyumlar va hodisalar emas, balki ularning qandaydir bir xususiyati yoki munosabati yaxlit mavjud narsa shaklida in'ikos ettiriladi. Masalan, «qahramonlik», «oshkoralik», «tenglik», «onglilik», «johillik» va boshqalar mavhum tushunchalardir. Konkret va mavhum tushunchalar tabiatini o'rganar ekanmiz, ulardagi ba'zi bir xususiyatlarni albatta hisobga olishimiz lozim:

a) konkret va mavhum tushunchalar tushunchaning hajmiga emas, balki mazmuniga qarab farqlanadi;

b) konkret tushunchalarning paydo bo'lishida - mavhum tushunchalar ham qatnashadi. Umuman hamma tushunchalar (konkret va mavhum) buyumlarning ayrim belgilaridan uzoqlashish orqali paydo bo'ladi. Agar bu buyumlardan uzoqlashish uning maxsus belgisiga tegishli bo'lsa, unda aytganimizdek, mavhum tushuncha paydo bo'ladi va aksincha, fikr bir to'p belgilarga va ular orqali shu buyumni aniqlashga qaratilgan bo'lsa, konkret tushuncha vujudga keladi. Shunday qilib, konkret va mavhum tushunchalar fikran buyumlardan uzoqlashish darajasiga qarab ajraladi. Musbat va manfiy tushunchalar ham tushunchaning mazmuniga qarab, buyumlarda belgi borligini tasdiqlashi yoki uni inkor etishi bilan bir-biridan farqlanadi. Agar tushunchada belgi borligi ifodalansa, u musbat, aksincha, belgi yo'qligi ko'rsatilsa, manfiy bo'ladi. Masalan, «obro'li», «madaniyatli», «intizomli», «savodli» degan tushunchalar musbat va «obro'siz», «madaniyatsiz», «intizomsiz», «savodsiz», «e'tiqodsiz» tushunchalari esa manfiy tushunchalardir. Odatda, o'zbek tilida manfiy tushunchalar har bir so'zga «siz-», «no-»; «be-», «emas» va boshqa qo'shimcha va yordamch so'zlarni qo'shib ifodalash orqali hosil bo'ladi. Masalan, «noinsof», «noshud», «bebaxt» va boshqalar. Ammo

musbat va manfiy tushunchalarni, unga nisbatan bo'lgan bizning munosabatimiz bilan almashtirish xatodir. Masalan, «millatchi», «xiyonatchi», «bosqinchi» va shunga o'xshash tushunchalar musbat tushunchalardir, chunki bularda buyum uchuy xos bo'lgan belgilar ko'rsatilgan. Ammo bu tushunchalarda ifoda etilgan holatlarni biz manfiy baholaymiz. Haqiqatan ham biz bunday ahvolga, milliy nizo, turli hiyonatlarga, boqsinchilikka befarq qaray olmaymiz. Mazmuniga sarab tushunchalar yana nisbatli va nisbatsiz tushunchalarga bo'linadi. Agar bir tushuncha ikkinchi tushuncha orqali bilinadigan bo'lsa, u nisbatli bo'ladi. Bunga misol qilib «oila», «boshliq», «bazis», «ustqurma», «sabab», «natija», «shakl», «mazmun», «yakka», «umumiy» kabi tushunchalarni ko'rsatish mumkin.

Tushuncha boshqa tushunchalarsiz bilinadigan bo'lsa nisbatsiz bo'ladi. Bunga misol qilib «davlat», «student», «xalq o'qituvchisi», «shartnoma» va boshqa tushunchalarni ko'rsatish mumkin. Kategoriyalar. Kategoriya - tushunchaning maxsus turi. Kategoriya buyumlar munosabati va bog'lanishlarini inson ongida eng umumiy tarzda in'ikos ettiradigan ilmiy tushunchadir. Har bir fan o'ziga xos ilmiy kategoriyalarga ega. Masalan, falsafa fanida «materiya», «harakat», «shakl», «mazmun», «sabab», «mohiyat», «zaruriyat» va boshqa ilmiy kategoriyalar, adabiyotda «obraz», «ijobiy», «salbiy», «tipiklik» va boshqa ilmiy kategoriyalar bor. Kategoriyalar inson bilim boyligini kengaytirishga katta yordam beradi.

Mantiqda jins tushunchasi nisbiy bo'ladi. Agar biz bir jinsdan ikkinchi yuqori jinsga qarab boradigan bo'lsak, birinchi jins, albatta, turga aylanadi. Bu hol fikrimiz ilmiy kategoriyalar darajasiga chiqquniga qadar davom etadi. Aksincha, agar biz fikrlashda asta-sekin jinsdan turga va undan real voqelikdagi buyumlarga boradigan bo'lsak, bizning bu sohadagi tushunchamiz ham hajm va mazmun jihatidan o'zgarib boradi. Tushuncha hajmidagi jins va tur xillarining to'g'riligi, ularning munosabati tushunchaning chinligiga bog'liqdir. Ob'ektiv reallikda predmet va hodisalarning munosabati, ularning umumiy konkret voqealar tizmasida tutgan o'rni xilma-xil bo'lganligi hamda inson o'z amaliy faoliyatida bu predmet hodisa munosabatlari turli tomondan duch kelishi mumkinligi tufayli bu

xilma-xillik tushunchalarda aks etib, jins-tur munosabatlarning turli-tumanligini, nisbiyligini vujudga keltirdi. Tushunchalar tizmasi ko'paygan sari, belgisi - jihatdan bir-biriga yaqin, umumiy bo'lgan tushunchalar soni ko'payishi bilan jins-tur bog'lanishlari ham ko'payaveradi. Masalan: organizm, o'simlik, dekorativ o'simlik, gul, atirgul va h. k. Lekin jins-tur munosabatlari, albatta, cheksiz emas: tafakkurda hajmi jihatidan eng umumiy, keng va eng tor tushunchalardan ko'p foydalaniladi. Masalan, yakka predmetni ifodalovchi tushuncha - bu eng tor tushunchadir. Masalan, O'zbekiston Respublikasi, Samarqand, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik Instituti - bu tushunchalar hech qachon jins bo'la olmaydi, ular yagona. Shuningdek, tabiat, harakat, bilish kabi tushunchalar hajm jihatidan nihoyatda keng tushunchalardir. Tushunchaning bunday munosabati yuz ming yillar davomida inson tafakkurida qaytarilaverib, qonun-qoida shakliga kirib qolgan. Bu mantiqiy qonun «tushunchalar mazmuni bilan hajmining teskari nisbati» deb ataladi. Bu qonunga muvofiq tushunchaning mazmuni qancha keng bo'lsa, ya'ni tushuncha belgilari qancha ko'p, konkret bo'lsa, uning hajmi shuncha tor bo'ladi va aksincha, tushunchaning mazmuni qancha tor bo'lsa, ya'ni belgilari kam, umumiy bo'lsa, uning hajmi shuncha keng bo'ladi.

Teskari nisbat qonuni tushunchada o'zaro jins-tur munosabatida ko'rinadi. Misol uchun, «adabiyot» va «o'zbek adabiyoti» tushunchalarini olib qaraylik. Bu tushunchalarning hajmi turlichadir. Birinchi tushunchaning hajmi keng va ikkinchi tushunchaning hajmi tor, Mazmun jihatidan esa tamoman boshqacha. «O'zbek adabiyoti» tushunchasi «adabiyot» tushunchasiga nisbatan ko'ra belgilarga ega. «Adabiyot» tushunchasiga xos bo'lgan umumiy belgilardan tashqari, yana u o'zi uchun maxsus bo'lgan belgilarga: milliyligi, ma'lum konkret region bilan bog'liqligi, til xususiyatlari va hokazolarga ham ega. Shunday qilib, har bir tushunchaning hajmi kengayishi bilan uning mazmuni torayadi va aksincha, mazmuni qancha keng bo'lsa, hajmi shuncha torayadi.

Tushuncha turlari orasidagi munosabatlar. Tushunchalar orasidagi munosabat masalasi muhim ahamiyatga ega. Tushunchalar mazmunan o'zaro munosabatiga qarab bir qancha qismlarga bo'linadi. Bu munosabatning muhim turlarini ko'rib chiqaylik: 1. Taqqoslanadigan munosabat. Bunday munosabat o'zaro muhim va umumiy belgilarga ega bo'lgan tushunchalar orasida mavjud. Masalan, «tarix» va «adabiyot», « mantiq » va « falsafa » kabi tushunchalar o'rtasidagi muhim umumiylik - ularning hammasi fanligi, fanning turli tarmoqlari ekanligida. Shunga ko'ra taqqosdanmaydigan tushunchalarda muhim va umumiy belgilarga bo'lmaydi. Bunga misol qilib « bazis », « logarifma », « qahramonlik », « madaniy o'g'it » tushunchalarini ko'rsatish mumkin. Bu tushunchalar o'rtasida o'xshashlik, mazmunan bog'lanish yo'q. Ba'zi taqqoslanadigan tushunchalar hajm jihatidan sig'ishadigan, mos keladigan tushunchalardan iborat bo'ladi. Sig'ishmaydigan munosabatda tushuncha hajmlari, aksincha, o'zaro mos bo'lmaydi. Sig'ishmaydigan munosabatlar uch turga bo'linadi: a) bir ma'noli tushunchalar munosabati. Bunda tushuncha o'z hajmi jihatidan ikkinchi tushuncha bilan to'la sig'ishadi va ayniyat munosabatsda bo'ladi. Misol uchun « Sharq Aristoteli », « Ikkinchi muallim », « Forobiy » yoki « Islomning asosiy muqaddas kitoop ». « Qur'on » tushunchalarini ko'rib chiqaylik. Bu misollarda tushunchalar o'z hajmi bilan to'la mos ekanligini ko'ramiz. Mantiqda bunday munosabat sxemada quyidagicha ifodalanadi.

Bunday hollarda tushunchalar mazmun jihatidan bir-biridan farq qilishi mumkin, ammo hajm jihatidan bir buyumning ma'nosini ifodalaydi. Bunda ikki xil tushunchada bir predmet ikki o'zaro farq qiluvchi belgisi orqali ifodalanadi. Mantiqda hajm jihatidan bunday munosabat ayniyat munosabati deyiladi. Albatta, ayniyat tushunchaning hajmiy munosabatidir, chunki mazmun jihatidan tushuncha bunday vaqt- larda aynan bo'la olmaydi;

b) bo'ysunish munosabati. Bu munosabatda bir tushuncha ikkinchi tushuncha hajmiga nisbatan bo'ysunish munosabatida bo'ladi. Odatda, bir tushuncha hajmi torroq, ikkinchisining esa kengroq bo'lib, torroq tushuncha kengroq tushuncha

hajmiga kiradi. Kengroq, ya'nn jinsiy tushunchani bo'ysundiruvchi va torroq tushunchani bo'ysunuvchi tushunchalar deb atash mumkin. Misol uchun, «terak» va «daraxt», «O'zbekiston» va «respublika», «zavod» va «sanoat korxonasi» kabi juft tushunchalarning birinchilari o'z hajmlari jihatidan ikkinchilariga bo'ysunish munosabatida bo'ladi. Bu misollarda «terak», «O'zbekiston», «zavod» tushunchalari jins tushunchalari, «daraxt», «respublika», «sanoat korxonalari» tushunchalari tur bo'lib, hajmi tor, bo'ysunuvchidir. Biz, odatda, buyumlar va hodisalar haqida fikr yuritganimizda «butun» va «bo'lak» degan tushunchalarni ham qo'llaymiz. Ammo bunday tushunchalar yuqorida keltirilgan ma'noda o'zaro bo'ysunish munosabatida bo'lmaydi. Chunki bunday tushunchalar o'zaro jins va tur munosabati bilan bog'lanmaydi, balki bir butunning bo'lagi shaklida ifodalanadi. Masalan, «kun», va «hafta», «sinf» va «maktab» kabi tushunchalar jins tushunchasining turi bo'lmay, balki butunning ayrim bo'lagini tashkil etadi;

z) hajmlarnikg qisman mos bo'lib kelish munosabati. Bunday tushunchalar hajmi birbiriga qisman mos kelib, o'zaro chatishadi. Misol uchun, «kitobxon» va «olim» yoki «student» va «gimnast», «shoir» va «shaxmatchi» degan tushunchalarni olib qaraylik. Haqiqatan ham «hamma studentlar» tushunchasini «gimnastlar» tushunchasi va «hamma gimnastlar» tushunchasini «studentlar» tushunchasi deb bo'lmaydi. Ya'ni, studentlarning bir qismi gimnastika bilan shug'ullanadi, bir qismi shug'ullanmaydi - bu haqiqatga to'g'ri keladi va ob'ektiv munosabatlarni ifodalaydi. Shuningdek, har qanday shaxmatni yaxshi biladigan odam shoir bo'lavermaydi. Birinchi, ikkinchi va uchinchi misollarda hajmlarning qisman mos bo'lishi aks etgan. Sig'ishmaydigan tushunchalar munosabati. Bular zidlik, qarama-qarshilik va birga bo'ysunish munosabatlarida bo'ladi. Tushunchaning zidlik munosabatida hajmlar o'zaro sig'ishmaydi. Bu munosabat ma'lum umumiylikka ega bo'lgan tushunchalar orasida mavjud bo'ladi. «Oq», «oq emas», «baland», «baland emas», «sog'», «sog' emas», «tinch», «notinch», «minnat», «beminnat» kabi misollarda bu holat aniq ko'rinadi. Bunda hamma vaqt inkor etuvchi tushunchaning mazmuni noma'lum bo'lib qoladi. Bunday munosabatda shu umumiylik doirasida uchinchi tushunchaning mavjudligi to'lig'icha inkor

etiladi. «Oq» va «oq emas» belgilari rang tushunchasi hajmini to'g'ri ifodalay olmaydi va qamrab ham olmaydi.

Ba'zan zid tushunchalar o'z hajmlarining qismi bilan to'g'ri kelmay bir-birini inkor etadi, lekin o'rtancha holat bo'lishiga yo'l qo'yiladi. Bunday munosabat tushunchalarini qarama-qarshi (yoki kontrast) munosabat deyiladi. Bunda bir umumiy belgi doirasida bir-birini inkor etuvchi ikki tushuncha umumiy tushuncha hajmini to'g'ri ifodalay olmaydi va qamrab ham olmaydi. Masalan, «oq» va «qora» yoki «o'spirin» va «chol», «shirin» va «achchiq» tushunchalari munosabati bularga misoldir. Bunday munosabatda biror o'rtancha holning bo'lishi tabiiydir, ya'ni «oq» yoki «qora» bo'lmay, «qizil» bo'lishi yoki «shirin» va «achchiq» emas, «sho'r» bo'lishi mumkin. Bunda biz tushuncha munosabatini 6-rasm bilan ifodalaymiz. Tushunchalar qarama-qarshi bo'lishiga qaramay, bir jins tushunchasi hajmiga kiradi. Agar biz «oq rang», «qora rang» desak, bu tushunchalar uchun umumiy jins «rang» bo'ladi. Birga bo'ysunuvchilik munosabatida sig'ishmaydigan tushunchalar bir jinsning turlari deb qabul qilinadi. Hajmi jihatidan bir qancha tushunchalar bir jinsga mansub bo'lgani sababli birga bo'ysunuvchi bo'ladi. Ammo mazmun jihatidan bir jinsdagi turli tushunchalar bir-biriga to'g'ri kelmaydi. Quyidagi misollarni analiz qilib ko'raylik: «chiziq» degan tushuncha jinsiga «to'g'ri», «egri», «siniq» turlari kiradi. Shunga o'xshash «burchak» tushunchasi jinsiga «to'g'ri», «o'tkir», «o'tmas» degan tushunchalar kiradi.

Tushunchani umumlash va chegaralash. Inson o'z tajribasida ko'p vaqt bir hajmdagi tushunchadan ikkinchi hajmdagi tushunchaga o'tadi. Odatda, bunday vaqtlarda jarayon tushunchaning umumlashishi yoki chegaralanishi yo'li bilan borishi mumkin. Tushunchaning chegaralanishi deb shunday mantiqiy usulga aytiladiki, bu usul yordami bilan tushuncha hajmi toraytiriladi. Bunday vaqtda buyumning qismiga taalluqli bo'lgan yangi belgi, albatta, boshlang'ich hajmga kiradi. Biz birovning yozuvchi ekanligini bilib, keyinchalik yozuvchi haqidagi bilimimizni aniqlashimiz lozim bo'ladi. Bunday vaqtda bizning bilimimiz

o'zgarishi - boyishi quyidagicha borishi mumkin: oldin uning o'zbek yozuvchisi ekanini, shunday keyin uning Davlat mukofoti laureata ekanini va oxiri «Navoiy» romani muallifi (Oybek) ekanini aniqlaymiz. Fikrning bunday tarzda borishi uning chegaralanishi bilan bog'liqdir. Tushunchamizni chegaralash paytida biz bir tushunchadan ikkinchi tushunchaga o'tamiz: «yozuvchi», «o'zbek yozuvchisi», «Navoiy» romani muallifi. Bunday vaqtda oldin ifoda etilgan tushunchaning hajmiga keyingi tushuncha kiradi.

16. Tushunchaning ahamiyati.

Tushunchada narsa - hodisalarning muhim belgi va xususiyatlari aks etarkan, aynan su jihatlar hamda ularning amalda qo'llanilishi ularning ahamiyatini belgilab beradi.

Tushunchalar ahamiyatini anglashda insonning bilish jarayoni muhim o'rin egallaydi. Bilish jarayono oddiydan murakkabga, kichikdan kattaga va pastdan yuqoriga qarab boradigan jarayon hisoblanadi. Odatda inson bilimi hissiy (emotsional) va aqliy (ratsional) bo'ladi. Bilish sezgi - idrok - tasavvur bosqichlarini o'zida mujassamlashtirgan yaxlit bir jarayondir. Hissiy bilimlar ichki asoslari inson sezgilari bilan bog'liq bo'lsa, uning aqliy bilimlari ongidagi tafakkur faoliyati bilan bog'liq bo'ladi. Hissiy bilimlar tashqi olamdagi yakka va tasodifiy narsa - hodisalar bilan bog'liq bo'lsa, aqliy tashqi olamdagi umumiy va zaruriy narsa - hodisalar bilan bog'liq bo'ladi.

Bilish jarayoni o'ziga xos ichki qonuniyatlarga ega bo'lib, ularni quyidagi yo'nalishlarda kuzatishimiz mumkin bo'ladi:

- innovatsion yo'nalish (bu bilish jarayonida sifat jihatdan yangi tub o'zgarishlarni nazarda tutadi);
- aksiologik (bu bilishda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayanib is ko'rishni anglatadi);
- reflektiv (bu bilish jarayoni davomida insonning o'z - o'zini anglab borishi jarayonida kuzatiladi);
- kompetentlik (bu insonning bevosita bilim - ko'nikmalari va qobiliyatlarining namoyon bo'lishida kuzatiladi);
- akmeologik (bu inson bilimining yuqorilab borishi jarayonida kuzatiladi);
- kreativ (bu bilish jarayoniga nisbatan nostandart yondoshuvni anglatadi);
- texnologik (bu bilish jarayonida aniq maqsadga yo'naltirilgan vositalar va usullarning amalda qollanilishi jihatlarini o'z ichiga oladi);

- psixologik (bu bilish jarayonidagi insonning ruhiy holatlar jihatlarini o'z ichiga oladi).

Bilish jarayonida tushunchalar ratsional bilishning asosiy shakllaridan biridir. Tushunchalar tajriba natijasi va bilishning asosiy vositalaridan biridir. Bilish jarayonida inson aqli tushunchalar orqali tajriba vositasiga aylanib boradi. Natijada tushunchalar aql yordamida tashqi olam mohiyatini anglashga imkon beradi.

Bilish jarayonida tushunchalar o'zgaruvchan, elastik va ichki ziddiyatli bo'ladi. Turli hayotning turli jabhalari va fanning turli yo'nalishlarda tushunchalar turlicha ahamiyat kasb etadi. Gumanitar sohada ular jamiyatning ijtimoiy asosini, mulkiy sohada jamiyatning iqtisodiy asosini, boshqaruv sohasida jamiyatning siyosiy asosini, madaniyat sohasida jamiyatning ma'rifiy asosini, taraqqiyot sohasida jamiyatning ilm - fan, texnik asosini, olamni o'rganish sohasida jamiyatning tabiiy fanlarni o'rganish asosini, olamni anglashda jamiyatdagi falsafiy qarashlarni hamda insonni anglashda jamiyatdagi psixologik ruhiyat asoslarini anglab yetishga imkon beradi. Mantiqda esa tushunchalar tafakkur qonuniyatlari va uning rivojlanib borishi jihatlarini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

17. Hukmning mohiyati va shakli

Hukm inson fikrlashining bir shaklidir. Hukmda fikrning chiligi yoki nochinligi aniqlanadi. Aniqroq aytganda hukmda fikrning chinligi yoki nochinligi yoki tasdiqlanadi va yoki inkor etiladi.

Misol: Karim yaxshi bola (bu tasdiq)

Karim yaxshi bola emas (bu inkor)

Har bir hukm o'z belgisiga ega bo'ladi.

Misol: Har bir inson vatan uchun xizmat qilishi kerak (bu gapda "vatan uchun xizmat qilish" hukmning belgisi bo'ladi)

Har bir hukm o'z xususiyatiga ega bo'ladi.

Misol: Koinotning chegarasi yo'q (bu gapda "Koinotning cheksizligi" hukmning xususiyatini anglatadi)

Demak mantiqda hukm narsa - hodisalarning belgi va xususiyatlarini ma'lum bir darajada ifodalaydi. Hukmning chinligi yoki nochinligi narsa - hodisalar belgi va xususiyatlarining chinligi yoki nochinligi bilan tasdiqlanadi yoki inkor etiladi.

Hukmning to'g'riligi yoki xatoligi narsa va hodisalar belgi va xususiyatlarining to'g'ri yoki xatoligi bilan tasdiqlanadi yoki inkor etiladi. Agar narsalar umumiyliги inkor etilsa (ular ajratilsa) va ular orasidagi farqlar umumiyliги tasdiqlansa bu hukm xato bo'ladi.

Misol: Qalay metall (aslida qalay metall emas, balki bronza va mis quymasidir).

Hukmlar xatoligini aniqlash qonunlari:

- Agar bir fikrning chinligi isbotlangan bo'lsa, uni chin deb tasdiqlash ham to'g'ri bo'ladi.
- Agar bir fikrning chinligi isbotlangan bo'lsa, uni xato deyish xato bo'ladi.
- Agar bir fikrning xatoligi isbotlangan bo'lsa, uni to'g'ri deyish xato bo'ladi.

- Agar bir fikrning xatoligi isbotlangan bo'lsa, uni xato deb tasdiqlash ham to'g'ri bo'ladi.

Odam fikrida tushuncha va hukm bog'liqligi narsalarning belgi va xususiyatlari orqali amalga oshadi.

Misol: Temir elektr o'tkazuvchi (bu temirning xususiyati).

Temir qora metall (bu temirning belgisi).

Odatda hissiy bilish bilishning va shu bilan birga tushuncha shakllanishining birinchi bosqichidir. Mantiqda "hukm - bu tushunchalarning o'zaro bog'liq bir tizimi" - deb hisoblash bir tomonlama yondoshuv bo'ladi. Chunki hukm shakllanishida aslida belgi va xususiyatlarning o'zaro bog'liq holda kelishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Odamning ongida hukmni yuzaga keltirgan narsa hukmning buyumi deb ataladi.

Misol: Oltin qimmatbaho metalldir (bunda "Oltin" tushunchasi shu hukmning buyumidir).

Ayrim hollarda hukmning asosi nomoddiy bo'lishi ham mumkin.

Misol: Fikr narsa - hodisalarning inson ongida aks etishidir. (bunda "Fikr" nomoddiy tushuncha).

Hukmning tarkibiy qismlari odatda sub'ekt (yoki gapning egasi), predikar(yoki gapning kesimi) va bog'lovchidan iborat bo'ladi.

Misol: Karim xatni diqqat bilan o'qidi. (bunda Karim - ega, xatni to'ldiruvchi, diqqat bilan - bog'lovchi, o'qidi - kesim).

Hukm dialektikasida quyidagilar kuzatiladi: juz'iylik, umumiylik, ayniyatlilik, va tafovutlilik.

Agar gapda ega va kesim ajratilsa, unda bu gap hukm bola olmaydi.

Misol: Kino va san'at sozi alohida ajratilsa, bu hukm bo'la olmaydi. Agar ular ajratilmasdan birga kelsa hukm bo'la oladi, ya'ni "Kino san'at"

Hukmda yakka va umumiy tushunchalar bog'liqligi ham kuzatiladi.

Misol: Karim (xususiy tushuncha) injener (umumiy tushuncha).

Lingvistikada gap tugallangan fikrni anglatadi. Tuzilishiga va ma'nosiga qarab gaplar darak gap, so'roq gap, undov gap va his - hayajon gaplariga bo'linadi.

Mantiqda gaplar qanday bo'lishidan qat'iy nazar albatta hukmlar bilan bog'liq bo'ladi, ya'ni hukm va gap yaxlit bir birlikni tashkil etadi.

Odatda hukm - bu insonning fikridir va u nutq orqali ifodalanadi. Hukm inson tomonidan o'zaro fikr almashinilganda bevosita ishtirok etadi. Hukmda ega oldingi bilimlarni, kesim esa keyingi bilimlarni oydinlashtiradi.

Misol: Falsafa fandır. Fan dialektik usulga tayanishi kerak. Fannig dialektik usulga tayanishi bu o'zaro aloqadorlik va yangilanish usuliga tayanishdir (bunda "fan" tushunchasi gapning turli bo'laklari sifatida kelishi kuzatiladi).

Odatda gapning egasi va kesimi bir ob'ektga tegishli bo'ladi. Garchi ular alihida ifodalangan bo'lsada, ular albatta o'zaro bog'liq bo'ladi.

Gapda kesim asosiy mazmunni ifodalash vazifasini bajaradi.

Misol: Asal shirindir. (bunda hukmning mohiyati aslning shirinligidadir).

Gapda bog'lovchi ega va kesimning o'zaro munosabatini ifodalaydi. Hukmdagi bog'lovchining vazifalari quyidagilardan iboratdir: - bog'lash vazifasi; - tasdiqlash yoki inkor etishni anglashga yordam berish vazifasi;

- belgi yoki xususiyatlarni anglashga yordam berish vazifasi.

Ayrim hollarda bog'lovchi so'zsiz kelishi ham m,umkin.

Misol: Salim odamdir (bu gapda "dir" qo'shimchasi bog'lovchi).

Ayrim hollarda esa bog'lovchi alohida bir so'z bo'lib kelishi ham m,umkin.

Misol: Talqin farazning ayrim turlaridan biridir (bunmda bog'lovchhi "biridir").

Og'zaki nutqda bog'lovchi sukut ohangi orqali ifodalansa, yozma nutqda u "chiziqlik", tire "-" orqali ifodalanishi mumkin. Odatda bog'lovchilar hukmdagi kesim orqali shu ob'ektga xos bo'lgan belgi unga tegishlimi yoki yo'q, shuni ko'rsatib beradi. Gapda inkor bog'lovchilari "emas", "yo'q" kabi shakllarda uchraydi.

Gapda kesim o'rni ham almashinib turishi mumkin.

Misol: Tramvay kelayotir (nima kelayotir?). Kelayotgan tramvay (kelayotgan nima?).

Hukmning sifat va son jihatdan bo'linishi

Mantiq fanida hukmning sifat va son jihatdan bo'linishi alohida o'rin egallaydi. Hukmning sifat va son jihatdan bo'linishi ichki mantiqiy munosabatlarga qarab to'rt guruhga ajratiladi:

- Yakka yoki juz'iy tasdiq hukmlari (latince I);
- Yakka yoki juz'iy inkor hukmlari (latince O);
- Umumiy tasdiq hukmlari (latince A);
- Umumiy inkor hukmlari (latince E).

Ularning mantiqiy formulalari:

$I = S - P$; ba'zi $S - P$ dir

$O = S - P$ emasdir; ba'zi $S - P$ emasdir

$A = \text{hamma } S - P$ dir

$E = \text{hech bir } S - P$ emasdir

Misol: - Fitrat – o'zbek jadidlari vakili.

- Ba'zi talabalar faoldir.

(Yakka yoki juz'iy tasdiq hukmlari (latince I);

- Ba'zi bir talabalar falsafa fanini bilmaydilar

(Yakka yoki juz'iy inkor hukmlari (latince O));

- Mehnat, mehnatning tagi rohat.

(Umumiy tasdiq hukmlari (latince A));

- Hech bir o'simlik suvsiz yashay olmaydi.

(Umumiy inkor hukmlari (latince E)).

Hukmda tushuncha yoki atama o'zining to'liq hajmi bilan fikrlansa uni bo'lingan hukm deyiladi.

Umumiy tasdiqlovchi hukmlar o'ziga xos bo'lib, ular quyidagicha bo'ladi.

Misol: Hamma metallar elektr otkazuvchi.

Umumiy inkor hukmlar ham o'ziga xos bo'lib, ular quyidagicha bo'ladi

Misol: Hamma metall elektr otkazuvchi emas.

Juz'iy tasdiq hukmlariga misol.

Misol: Ba'zi metallar elektr o'tkazuvchidir.

Juz'iy inkor hukmlariga misol.

Misol: Ba'zi metallar elektr o'tkazuvchi emasdir.

Boshqa turdagi hukmlarning tasnifi

Mavjudlik hukmi: Tilsiz tafakkur bo'lmaydi.

Xususiyatni ifodalovchi hukm: Samolyot havoda parvoz qiladi.

Munosabat hukmi: - Toshkent Samarqandning shimoliy – sharqida joylashgan (Makon hukmi); - Navoiy jomiyning zamondoshidir (Vaqt hukmi); - Lola Barnoning onasi (Jins munosabat hukmi); - Zarif Nasibadan uch oy keyin tug'ilgandir (Ketma – ketlik hukmlari).

Hukmlarning ob'ektiv modalligi inson ongidan tashqarida bo'lgan buyumlarning ehtimoliy, voqeali, va zaruriy bog'lanishlardan tashkil topgan bo'ladi.

Ehtimoliy hukmlar ehtimol, chamasi, shekilli kabi so'zlar yordamida tashkil topadi

Misol:

- Sharif ehtimol talabadir (formulasi **S ehtimol – P dir**).
- Sharif ehtimol talaba emasdir (formulasi **S ehtimol – P emas**).

Voqeali hukmlar albatta, so'zsiz, haqiqatdan, darhaqiqat, shubhasiz kabi so'zlar yordamida tashkil topadi

Misol:

- So'zsiz kecha kun issiq bo'ldi.
- Albatta shu qiz baxtli bo'ladi.
- Haqiqatdan bu o'sha odam.
- Darhaqiqat siz o'sha joyda bo'lgansiz.
- Shubhasiz bu yigit Salimdir.

Zaruriy (apodiktiv – ishonchli, asosli) hukmlar shart, zarur, lozim, kerak kabi so'zlar orqali yuzaga keladi.

Misol:

- Har bir talaba darsda bo'lishi shart.
- Har bir talabada darsga qiziqish uyg'otish zarur.
- Har bir kishi vatanga xizmat qilmog'I lozim.
- Har bir oilaga nisbatan e'tiborli bo'lish kerak.

Fikrning isbotlanuvchanlik darajasiga qarab hukmlarning modalligi muammoli va ishonchli qismlarga bo'linadi.

Muammoli hukm:

- Ehtimol Sharif kasaldir (formulasi **ehtimol S – P dir**).
- Ehtimol Sharif kasal emasdir (formulasi **ehtimol S – P emasdir**)

Ishonchlilik hukmi:

Adabiyot – gumanitar asosli fandır (formulasi **S – P dir**)

Adabiyot – gumanitar asosli fan emasdir (formulasi **S – P emasdir**)

Shartli hukmlar

a) Shartli hukmlar - Bulut tarqaldi, quyosh ko'rindi (formulasi **S – P dir, S1 – P1 dir**)

- Olma nok emas, suv olov emas (formulasi **S – P emas, S1 – P1 emas**)

b) Shartli hukmlar

- Agar o'quvchi a'lochi bo'lsa, u maqtovg'a loyiqdir

(formulasi **agar S – P bo'lsa, unda S1 – P1 dir**)

- Agar meva daraxti gullamasa, u hosil bermaydi

(formulasi **agar S – P bo'lmasa, unda S1 – P1 emasdir**)

c) Ayiruvchi (dizyunktiv) hukmlar

- Talaba imtihonda yoki a'lo, yoki yaxshi, yoki qonuiqarli baho oladi

(formulasi **S – yoki P, yoki P1, yoki P2, yoki P3 dir**)

Implikativ bo'linish

Implikatsiya belgisi ” --”

Misol: Agar yomg'ir yog'sa, yer loy bo'ladi

Xato hukmga misol: Agar yomg'ir yog'sa, yer quruq bo'ladi

Mantiqda predikatning sub'ektga nisbatan munosabati bo'yicha qat'iy, shartli va buysunuvchi bo'ladi.

Misol:

- Hukm qat'iy shikoyatga o'rin yo'q.
- Garchi hukm qat'iy bo'lsa unda shikoyatga o'rin yo'q.
- Agar hukm qat'iy bo'lsa unda shikoyatga o'rin yo'q.

Dizyunktiv ayiruv

Misol:

- Abdulla dam olishni Toshkentda yoki Samarqandda o'tkazadi.
- Abdulla bir vaqtning o'zida ham Toshkentda ham Samarqandda bo'la olmaydi.
- Abdulla albatta bu ikki joyning birida bo'ladi.

Konyuktiv qo'shish

Bu "va", "ham", "hamda" bog'lovchilari orqali yuzaga keladi.

Misol:

- Chekish va alkogol ichimliklar sog'liq uchun zarardir.
- Qodir ham Salim kabi talabadir.
- Qodir hamda Karim darsga ketishdi.

Konyuktiv inkor

Misol:

- Hech bir yozuvchi olim emasdir.
- Aynan shu daraxt mevali emasdir

18.Hukmlar orasidagi munosabat. Mantiqiy kvadrat.

Mantiqda zidlik, ayiruv, buysunish, dizyunksiya, konyuksiya, tasdiq, inkor, hukmlar munosabatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda har bir hukm jihatlari va ayniqsa mantiqiy kvadratning roli juda kattadir.

Mantiqiy kvadratning formulalari:

$I = S - P$; ba'zi $S - P$ dir


$O = S - P$ emasdir; ba'zi $S - P$ emasdir

$A =$ hamma $S - P$ dir

$E =$ hech bir $S - P$ emasdir

Mantiqiy kvadrat tomonlari munosabatlari

- **AE – qarama – qarshilik munosabati**
- **AI – buysunish munosabati**
- **AO – zidlik munosabati**
- **EO – buysunish munosabati**
- **EI – zidlik munosabati**
- **EA – qarama – qarshilik munosabati**
- **IO – qarama – qarshilik munosabati**



Mantiqiy kvadrat tomonlari munosabatlariga oid misollar

AE qarama – qarshilik munosabati

Misol:

Hamma talabalar shaxmat o'yinini bilishadi. **(A)**

Hech bir talaba shaxmat o'yinini bilishmaydi **(E)**

Bu umumiy inkor bilan juz'iy tasdiq hukmlar munosabati

AO zidlik munosabati

Misol:

Hamma ilmiy qonunlar ob'ektiv xarakterga ega **(A)**

Ba'zi bir ilmiy qonunlar ob'ektiv xarakterga ega emas **(O)**

Bu umumiy inkor bilan juz'iy tasdiq hukmlar munosabati EI zidlik munosabati

Misol:

Hech bir fan organic tabiatni o'rganish bilan shug'ullanmaydi (E)

Ba'zi bir fanlar organic tabiatni o'rganish bilan shug'ullanadi (I)

Bu umumiy inkor bilan juz'iy tasdiq hukmlar munosabati

IO qarama – qarshilik munosabati

Misol:

Ba'zi bir davlatlar Osiyoda joylashgan (I)

Ba'zi bir davlatlar Osiyoda joylashmagan (O)

Bu juz'iy tasdiq va juz'iy inkor hukmlar munosabati

AI buysunish munosabati

Misol:

Hamma fuqarolar mahallada bir – birlarini hurmat qilishlari lozim (A)

Ayrim fuqarolar mahallada bir – birlarini hurmat qilishlari lozim (I)

Bu umumiy tasdiq va juz'iy tasdiq hukmlar munosabati

EO buysunish munosabati

Misol:

Hech bir talaba ishyoqmas bo'lmasligi lozim (E)

Ayrim talabalar ishyoqmas bo'lmasligi lozim (O)

19.Xulosa chiqarishning umumiy xarakteristikasi

Xulosa chiqarish – bubir yoki bir nechta hukmlardan ob'ektiv voqelikdagi narsa – hodisalar haqidagi yangi hukmni vujudga keltirish uchun xizmat qiladigan tafakkurning maxsus shaklidir.

Xulosa chiqarish ma'lum bir bilimlar orqali oldin noma'lum bo'lgan bilimlarni vujudga keltiradi.

Xulosa chiqarishning dastlabki unsurlari hissiy bilishlar bilan bog'liq bo'ladi.

Misol:

- Havo sovuq bo'ldi.

– Kun issib ketdi.

Bevosita xulosa chiqarish

Misol:

Momoqaldir oq chaqmoq chaqishining natijasidir.

(Bevosita xulosa chiqarish mavzusi alohida ko'rib chiqiladi)

Hozir yomg'ir yog'moqda

Bilvosita xulosa chiqarish

Misol:

Hamma metallar elektr o'tkazuvchi. Temir metal. Demak elektr o'tkazuvchidir.

Xulosa chiqarishning tarkibi **asos** va **natija (xulosa)** dan tashkil topgan bo'ladi.

Misol:

Respublikaning barcha fuqarolari dam olish huquqiga egadirlar. Salim respublikamizning fuqarosidir. Demak Salim ham dam olish huquqiga egadir.

Ushbu misolda 2 ta asos va bitta xulosa mavjuddir.

Xulosa chiqarishning ob'ektiv asosi **umumiylik, juz'iylik va yakkalikning** birligidir.

To'g'ri xulosa chiqarishning shartlari:

- har bir xulosaning asoslari to'g'ri bo'lishi lozim;
- xulosa chiqarishda hukmlarning o'zaro ichki o'zaro bog'liqligi albatta mantiqan to'g'ri bo'lishi kerak;
- xulosa chiqarish albatta mantiq qonunlari va qoidalari asosida yuzaga kelgan bo'lishi lozim.

Turli fanlarda xulosa chiqarish turlicha bo'lishi mumkin. Bu har bir fanning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlaridan kelib chiqadi. Shunday bo'lsada har bir fanda xulosa chiqarishda ulardagi hukmlar orasida o'zaro mantiqiy bog'liqlik bo'lishi talab etiladi.

Odatda fanlarda xulosa chiqarish nazariy va amaliy asoslar asosida yuzaga keladi.

Ayrim holatlarda gaplar shaklan to'g'ri bo'lsada, ulardan kelib chiqadigan xulosalar noto'g'ri bo'lishi ham mumkin. Bu odatda sofistika xulosalarda ko'zga tashlanadi. Ularning shakli **“mantiqiy zanjir”** va **“mantiqiy tuzoqlar”** da kuzatilishi mumkin.

Misol:

Kamolning qolida gugurt bor. Demak Kamol sigaret chekadi. Kamol sigaret cheksa albatta spirtli ichimlik ichadi. Kamol spirtli ichimlik ichsa albatta janjal qilishi mumkin. Demak qo'lida gugurt bor Kamol yomon odam bo'lishi kerak. Qo'lida gugurt bor Kamol misolida boshqa qo'lida gugurt bor odamlar xususida ham shunday xulosa chiqarish mumkindir(**Bu mantiqiy zanjir orqali noto'g'ri xulosa chiqarishdir**).

Ushbu xulosaning noto'g'riligi uning asoslari noto'g'riligi bilan bog'liqdir.

To'g'ri xulosa chiqarish ahamiyati quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

- fanlarning dolzarb muammolari va istiqbolli yo'nalishlarini aniqlashda;
- kriminalistikada jinoyat motivlarini aniqlashda;
- yoshlar ta'limi va tarbiyasini to'g'ri yo'nalishlarda tashkil etishda;
- fuqarolar orasidagi o'zaro munosabatlarni to'g'ri tashkil etishda;
- mantiq va falsafa muammolari hamda mavzularini to'g'ri anglashda;
- talabalar bilan individual ishlarni to'g'ri tashkil etishda va.h.k.z.

20.Bevosita xulosa chiqarish

Xulosa chiqarish turli - tuman bo'lib, odatda ularning bevosita va bilvosita jihatlari alohida ajratilib ko'rsatiladi. Bevosita xulosa chiqarishda xulosaning hukmga to'g'ridan - to'g'ri bog'liq holda yuzaga kelishi kuzatiladi.

Misol:

- Universitetimizning ayrim talabalari shoir. Demak, ayrim shoirlar universitetimizning talabalari.
- Siyosiy mustaqil davlat mustamlaka emas. Demak, mustamlaka davlat mustaqil bo'la olmaydi.

Mantiqiy kvadrat orqali xulosa chiqarish esa qarama - qarshilik, ziddiyatlilik va buysunishlik munosabatlari orqali bo'ladi.

Aylantirish orqali xulosa chiqarish sub'ekt va predikat ozgarishini aks etsada, bunda ularning mazmuni o'zgarmay qolaveradi.

Misol:

Respublikamizning hamma fuqarolari (S) teng huquqlidir (P). Teng huquqlilarning bir qismi (P) respublikamizning fuqarolaridir (S).

Bu misolda S va P o'zni almashgan bo'lsada gapning mazmuni o'zgarmay qolgandir.

Mantiqda sodda almashtirish xulosalari ham uchray turadi.

Misol:

Hech bir demokratik davlat (S) agressiv emas (P). Hech bir agressiv davlat (P) demokratik davlat emas (S).

Ushbu misolda demokratik va agressiv tushunchalari o'zaro sig'ishmaydigan tushunchalardir. Shunday bo'lsadaular bir - birini to'liq anglashga imkon beradi.

Turli hukmlar shakllarining almashinuviga oid misollar.

Umumiy tasdiq (A)ning juz'iy tasdiq (I) hukmga almashinuvi.

Misol:

Guruh talabalarining barchasi (S) bu yil Toshkentga boradi (P).

Bu yil Toshkentga boradiganlarning ba'zi birlari (P) guruhimiz talabalarini (S).

Sxemasi: Hamma S - P, ba'zi P - S dir.

Misol:

Tuhmat yolg'on bo'htondir.

Yolg'on bo'hton tuhmatdior.

Ushbu misolda esa S va P ning mosligi kuzatiladi.

Umumi inkor va sodda almashtirish.

Misol:

Hech bir bosqinchilik urushi (S) adolatli urush emas (P).

Hech bir adolatli urush (P) bosqinchilik urushi emas (S).

Sxemasi: Hech bir S - P emas, Hech bir P - S emas

Juz'iy tasdiqda (I da) S va P ning o'zaro tytashuvi

Misol:

Ba'zi dramalar (S) she'riy asardir (P).

Ba'zi she'riy asarlar (P) dramadir(S).

Sxemasi: Ba'zi S - P dir, Ba'zi P - S dir.

Barcha hukmlardan faqat juz'iy inkor (O) hukmlargina almashmaydi.

21. Aylantirish orqali xulosa chiqarish

Aylantirish bevosita xulosa chiqarishning shunday shaklidirki, bunda boshlang'ich asos hukmning sub'ekti, xulosasi hukmning o'zida saqlanib qolingan bo'ladi.

Lekin predikat qarama - qarshi mazmundagi predikatga, bog'lovchi ham qarama - qarshi ma'nodagi bog'lovchiga aylantiriladi.

Misol:

Har qanday xiyonat jazolanmog'I lozim.

Hech qandau xiyonat jazosiz qolmasligi lozim.

O'zaro inkorning bir - birini tasdiqlashi

Misol:

Baliq go'sht emas, go'sht baliq emas.

Sxemasi: S - P emas, P - S emas

Aylantirish orqali xulosa chiqarilganda uning predikati o'zining teskari mazmuniga ega bo'lmasligi ham mumkindir.

Misol:

Barcha muzqaymoqlar sovuq.

Ayrim muzqaymoqlar bunday sovuq emas.

Turli hukmlarda aylantirish orqali xulosa chiqarish quyidagicha bo'ladi:

Umumiy tasdiq hukmlarining umumiy inkor hukmlariga aylantirilishi

Misol:

Barcha haqiqiy yaxshi insonlar vijdonlodir (A).

Hech bir haqiqiy inson vijdonli emasdir (E).

Sxemasi: Hamma S - P dir, Hech bir S - P emasdir

Umumiy inkor hukmlarining umumiy tasdiq hukmlariga aylantirilishi

Misol:

Hech bir bosqinchilik urushi adolatli emas (E).

Har bir bosqinchilik urushlari adolatli bo'ladi(A).

Sxemasi: Hech bir S - P emasdir, Har bir S - P bo'ladi

Qisman tasdiq hukmlarni qisman inkor hukmlarga aylantirish

Misol:

Ba'zi davlatlar ekvatorida joylashgan (I)

Ba'zi davlatlar ekvatorida joylashmagan emas (O).

Sxemasi: Ba'zi S - P dir, Ba'zi S - P emasdir

Qisman inkor hukmlarni qisman tasdiq hukmlarga aylantirish

Misol:

Guruhdagi ba'zi talabalar shaxmat o'ynamaydi (O).

Guruhdagi ba/zi talabalar shaxmat o'ynaydi (I)

Sxemasi:Ba'zi S - P emasdir, Ba'zi S - R dir.

Aylantirish orqali xulosa chiqarilganda barcha hukmlarning sifati o'zgarsada, lekin ularning soni o'zgarmaydi.

Ayrim fikrlar va aforizmlar

- Mantiq tafakkur kishilarining tangrisidir.
- So'zni ko'ngilda pishitmaguncha uni tilingga keltirma.
- Til tafakkurning jonli namoyon bo'lishidir.
- Mantiq tafakkurining ravshanligi tilning asosiy fazilatidir.
- Mantiqan olganda ayblanuvchi qonunni qonun esa ayblanuvchini inkor etadi.

22. Sillogizmning mohiyati

Sillogizm yunonchada “hisoblash yoki hisobga olish” degan ma’noni anglatadi. Mantiqda deduktiv metod orqali xulosa chiqarish sillogizm bo’ladi. Odatda sillogizm ikki yoki undan ortiq hukmlar orqali xulosa chiqarish orqali yuzaga keladi. Mantiqiy jihatdan olganda sillogizmدا umumdan yakkaga qarab boriladi.

Misol:

Barcha talabalar mantiqdan imtihon topshirishlari lozim. Karim talaba. Demak Karim mantiqdan imtihon topshiradi.

Agar hukmlar o’zaro bog’liq bo’lmasa unda mantiqan xulosa chiqarib bo’lmaydi.

Misol:

Barcha baliqlar suvda yashaydi. Tuyaqush parvoz qilmaudigan qush. (Bunda xulosa chiqarib bo’lmaydi)

Odamlarning kundalik hayotdagi tajribalarisillogizm yo’li bilan to’g’ri xulosa chiqarish mezonini hisoblanadi.

Sillogizm orqali xulosa chiqarish odatda uch yo’l bilan amalga oshiriladi. Ular quyidagilardir:

1. Eng umumiylikdan kichik umumiylikka, xususiylikka yoki yakkalikka qarab boradigan sillogizm.

Misol:

XIX asr oxiri shoirlari asarlaridemokratik xarakterga egadir. Muqumiy XIX asr oxiri shoiridir. Demak Muqumiy asarlari demokratik xarakterga egadir.

2. Yakkadan juz’iyga qarab xulosa chiqarish.

Misol:

Suv suyuq jism. Suv ximiyaviy elementlardan iboratdir. Demak ayrim ximiyaviy elementlardan iborat jismlar suyuqdir.

3. Bir umumiylikka ega bo'lgan hukmdan shu umumiylikka ega bo'lgan boshqa bir hukmga qarab borish.

Misol:

Hech bir urush tarafdori tinchlikni istamaydi. Tinchlikparvar insonlar esa tinchlikni istaydilar. Demak hech bir tinchlikparvar insonlar urushni istamaydilar.

Keng va tor asoslar bo'yicha xulosa chiqarishga misol.

Misol:

Barcha davlatlar iqtisodiy taraqqiyot uchun kurashadilar. Bolgariya davlat. Demak Bolgariya iqtisodiy taraqqiyot uchun kurashadi

Sillogizm shaklida xulosa chiqarish ikki yoki undan ortiq hukmlarning o'zaro bog'lanishiga tayanib uchinchi yangi hukmni yuzaga keltirish jarayonidir.

Sillogizm yangi, biz uchun noma'lum bo'lgan bilimlarni xulosalar orqali bizga ochib berad.

23.Sillogizm tarkibi.

Odatda mantiqda soda sillogizmlarda ikkita asos,xulosa va uchta atama (termin) bo'ladi.

Misol:

Hamma ilmiy qonunlar ob'ektivdir.Materialistik dialektika qonunlari ilmiydir.Demak materialistic dialektika qonunlari ob'ektivdir.

Bunda birinchi va ikkinchi hukmlar asos va uchinchi hukm esa xulosa bo'ladi. Birinchi hukm kata asos va ikkinchi hukm kichik asos bo'ladi.

Sillogizm atamalari – bu xulosa chiqarish uchun xizmat qiladigan tushunchalardir. Xulosa kesimi (predikati) ifodalovchi tushuncha katta termin deb ataladi. Xulosaning sub'ekti esa kichik termin bo'ladi.

Agar tushuncha ikkita hukmda mavjud bo'lsa, xulosada uchramasa uni o'rta termin deydilar.

Mantiqda kata termin (P), kichik termin (S) va o'rta termin (M) bo'ladi.

Keltirilgan misolda P – ob'ektiv, S – materialistic dialektika qonunlari, M – ilmiy qonunlar bo'ladi.

Odatda o'rta termin kata va kichik terminlarni o'zaro bog'lab turadi.Bu bog'liqlik atrofdagi narsa va hodisalarning o'zaro bog'liqliklarini xulosalarda ifoda etadi hamda aks ettiradi. Bu turdagi sillogizm ikkita asos, bitta xulosa va uchta terminlardan iborat bo'ladi.

Qiziqarli ma'lumotlar

- Aql hissiyotning ko'zini ochadi;
- Ko'ngil qulfining kaliti aqlmi yoki til?
- Talaba fanni istamay o'qiyotganining sababi nimada?
- Tikan ekib, uzum olgan kishi qanday kishi?

24. Sillogizm aksiomasi.

Sillogizm aksiomasi sillogizm mohiyatining ichki qonuniyatlarini ochib beradi.

Sillogizm aksiomasi aslida mantiqiy xulosalarning o'ziga xos bir namoyon bo'lishidir.

Sillogizmdagi terminlar munosabati

Agar $S - M$ ga buysunsa

$M - P$ ga buysunsa

Unda $S - P$ ga buysunadi

Agar sillogizm inkor etuvchi bo'lsa unda o'zaro munosabatlar quyidagicha bo'ladi

Agar $S - M$ ga itoat etmasa

$M - P$ ga itoat etmasa

Unda $S - P$ ga itoat etmaydi

Sillogizmdagi umumiylikda ma'lum bir belgining borligi uning xususiylikda ham mavjudligini ko'rsatadi

Misol:

Inson tafakkur egasi.

Karim inson.

Demak Karim tafakkur egasidir.

Va aksincha sillogizm inkor bo'lsa, unda uning xulosasi ham inkor etuvchi bo'ladi.

Misol:

Hayvon tafakkur egasi emas.

Sigir hayvon.

Demak sigir tafakkur egasi emasdir.

Nimaiki buyumlarning ayrim jinslari uchun tasdiqlansa yoki inkor etilsa bu tasdiq yoki inkor shu jins ichiga kiruvchi barcha narsalarga ham taaluqli bo'ladi.

Tasdiq mazmun bo'yicha sillogizm

Misol:

Hamma olimlar kuchli taraqqiyot tarafdorlaridir.

Sulton Umarov olim

Demak Sulton Umarov ham kuchli taraqqiyot tarafdoridir.

Inkor mazmun bo'yicha sillogizm

Misol:

Chinor daraxt

Daraxtlar bir yillik o'simlik emas.

Demak chinor bir yillik o'simlik emasdir.

Sillogizm munosabatlari rivojlanishining sxemasi

S > M

M > P

S > P

yoki inkor holatida

S > M

M < P

S < P

Sillogistik aksiomada bir belgining boshqa bir belgiga o'xshashligi shu belgilarning bir sinfga xosligini ko'rsatadi.

Agar bir narsaning belgisidagi ziddiyat ikkinchi buyumning belgisida uchramasa ular o'zaro ichki ziddiyatda bo'ladi.

Agar bir narsaning belgisidagi ziddiyat ikkinchi buyumning belgisida uchrasa ular shu belgilar orqali bir sinfga oid bo'ladi.

Inkor belgi sillogizmiga misol.

Misol:

Barcha planetalar quyosh atrofida aylanadi.

Siriua planeta emas.

Demak Sirius Quyosh atrofida aylanmaydi.

Aksiomatik sillogizmida umumiylik jinsda va xususiylik esa turda ifodalangan bo'ladi.

Hamma xususiyliklar albatta umumiylikka tegishli bo'ladi. Umumiylik jins esa barcha xususiylikka oid turlarga tegishli bo'ladi.

Aksiomatik sillogizmida hukmlar sifat va miqdor jihatdan bir – birini shart etuvchi bog'liqlik munosabatiga ega bo'ladi.

Qiziqarli ma'lumotlar

-Vassalimning vassal mening vassalim (shuni izohlang)

- Otasining o'glining bolasi otasiga kim boladi?

-Eshik ortidagi qorong'ulik shu eshikka tegishlimi?

-Sizniki bizniki, bizniki esa o'zimizniki - degan odam qanday odam?

-Qorong'u xonada qora mushukni izlash befoyda. Ustiga ustak bu xonada qora mushuk bo'lmasa. (bu nimani ahglatadi)

GLOSSARIY

UMUMIY ATAMALAR

Abstraksiyalash (lot. abstractio – mavhumlik, uzoqlashuv) – tafakkurning asosiy metodlaridan biri. Unda narsa va hodisalarning muhim belgi va xususiyatlari fikran ajratilib, uning ikkinchi darajali va ahamiyati kam xususiyatlaridan chetlashtiriladi.

Absurd (lot. absurdus – tentak, beʼmani, behuda) – mantiqqa zid boʻlgan beʼmani xulosaga kelish.

Aylantirish – bevosita xulosa chiqarish boʻlib, bunda tasdiq hukm inkorga yoki inkor hukm tasdiq hukm holiga keltiriladi.

Ayiruvchi (dizʼyunktiv) hukm – bir necha hukmlardan yo, yoki, yohud logik bogʻlovchilari yordamida hosil boʻladigan murakkab hukm shakli. Bunda hukmlarning biri toʻgʻri boʻlsa, boshqasi xato boʻladi.

Ayniyat qonuni – formal mantiqning asosiy qonunlaridan boʻlib, bu qonunga koʻra muhokama jarayonida maʼlum predmet toʻgʻrisidagi fikr hajm jihatidan barqaror muayyanlikni saqlashi shart. Muhokamada har bir tushuncha aynan bir maʼnoda ishlatilmogʻi lozim. Uning formulasi $A - A$ dir

Aksioma (grek. axioma – qabul qilingan holda) – isbot talab qilmaydigan tushunchalar, bilimlar. Har qanday aksioma amaliyotdan, tajribadan kelib chiqqan holda isbotlangan boʻladi.

Analogiya (yun. analogia – aynanlik, oʻxshashlik) – predmet va hodisalarda biror xususiyatning oʻxshashligi. Antinomiya (yun. antinomia – qonundagi ziddiyat) – mantiqiy isbotlanadigan ikki qonun, hukm yoki xulosa oʻrtasidagi ziddiyat.

Agnostitsizm (qadimgi yunoncha ἄγνōsos "bilib boʻlmaydigan") falsafiy tushuncha boʻlib, unga koʻra dunyoni bilib boʻlmaydi va odamlar narsalarning asl mohiyati haqida ishonchli hech narsa bila olmaydilar, diniy agnostitsizmning pozitsiyasi shundaki, odamlar ishonchli hech narsani bilmaydilar. Agnostiklar

uchun Xudoning, ilohiy yoki g'ayritabiiylikning mavjudligi noma'lum yoki tushunarsizdir. Agnostitsizm tarafdorlari keng ma'noda ob'ektiv voqelikni sub'ektiv tajriba orqali bilishni, voqelikning har qanday yakuniy va mutlaq asoslarini bilishni esa mutlaqo mumkin emas deb hisoblaydilar.

Antinomiylar - bir-biriga zid bo'lgan hukmlar; bir-birini istisno qiluvchi teng hukmlar, ularning har biri isbotlanishi mumkin. Antinomiya (qadimgi yunoncha ἄντι-νόμος "qonundagi ziddiyat" yoki "qonunning <o'ziga> ziddiyat" ἄντι-"qarshi"+ νόμος "qonun" so'zidan) - bu qarama-qarshi bayonotlar bilan bog'liq vaziyat. bir xil ob'ekt mantiqiy jihatdan teng asosga ega va ularning haqiqat yoki noto'g'riligini qabul qilingan paradigma doirasida oqlab bo'lmaydi, ya'ni tan olingan teng huquqli qoidalar o'rtasidagi ziddiyat yoki boshqacha aytganda, bir nechta qonunlarning ziddiyatlari. "Antinomiya" atamasini Goklenius taklif qilgan. Antinomik tafakkur g'oyasi qadimgi yunon falsafasidagi (Platon, Aristotel) kabi garchi "aporiya" atamasi ko'proq ishlatilgan; Shu bilan birga, ba'zi semantik antinomiylar ishlab chiqilgan, masalan, "Yolg'onchi" (Miletidan Eubulidlar). Yolg'onchining eng oddiy versiyasida bir kishi: "Men yolg'on gapiryapman" yoki "Hozir aytayotganim yolg'on" yoki "Bu gap yolg'on" deb aytadi. Agar gap yolg'on bo'lsa, so'zlovchi rost gapirgan, aytgani esa yolg'on emas. Agar so'z yolg'on bo'lmasa, lekin so'zlovchi uni yolg'on deb da'vo qilsa, uning gapi yolg'onidir. Shunday qilib, agar so'zlovchi yolg'on gapirsa, u haqiqatni aytadi va aksincha. "Yolg'onchi" paradoksi Eubulidlarning zamondoshlarida katta taassurot qoldirdi. Hatto afsonalar mavjudki, Koslik bir Filet bu paradoksni hal qilishdan umidini uzib, o'z joniga qasd qildi va mashhur qadimgi yunon mantiqchisi Diodor Kronos "yolg'onchi" ga yechim topmaguncha ovqat yemaslikka va'da berib, muammoni hal qilmasdan vafot etdi. O'rta sarlarda Sxolastik mantiqchilar antinomiyaning shakllantirish va tahlil qilishga katta e'tibor berishgan.

Nemis mumtoz falsafasining asoschisi Immanuel Kant birinchi bo'lib antinomiylar bilish jarayonining o'ziga xos xususiyatlaridan, xususan, ongning tajriba chegarasidan tashqariga chiqishga, idrok etishga doimiy urinishlari natijasida

yuzaga kelishini ko'rsatdi. narsaning o'zida" va Kantning fikricha, bu mumkin emasligi sababli, har qanday bunday chiqish antinomiyaga olib keladi.

Kant o'z falsafasining asosiy tezisini asoslash uchun "antinomiya" tushunchasidan foydalangan, unga ko'ra aql hissiy tajriba chegarasidan tashqariga chiqa olmaydi va "narsalarni o'z-o'zidan" bila olmaydi (Ding an sich, lit. "o'z-o'zidan narsa").

Kant ta'limotiga ko'ra, bunday urinishlar qarama-qarshiliklarga olib keladi, chunki ular quyidagi "sof aql antinomiyalari" ning har birining tasdiqlanishini (tezisini) ham, inkorini (antitezasini) ham asoslash imkonini beradi:

Dunyo cheklangan - dunyo cheksizdir.

Har bir murakkab modda oddiy qismlardan iborat - hech narsa oddiy emas.

Dunyoda erkinlik bor - dunyoda erkinlik yo'q, faqat sabab-oqibat hukmronlik qiladi.

Dunyoning birinchi sababi (Xudo) bor - dunyoning birinchi sababi yo'q.

Kant "antinomiya" ni nazariy aqlning (nem. Vernunft) o'zi yoki aqlning o'zi (nem. Verstand) bilan bog'liq bo'lgan qarama-qarshilik sifatida tushuntiradi, chunki u mutlaq g'oyani dunyo bilan barcha hodisalarning umumiyligi sifatida bog'laydi. Aynan o'sha erda qarama-qarshi qonunlar va soxta asosli nazariyalar paydo bo'lib, bizning aqlimiz uchun tushunarsiz qoidalarni qabul qilishga olib keladi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, antinomiyalar quyidagi savollarni o'z ichiga oladi: koinot, makon, vaqt cheklanganmi yoki cheksizmi? Bo'linmas atomlar bormi yoki materiya cheksiz bo'linishi mumkinmi? Tabiatda faqat zarurat bormi yoki erkin sabablar ham mumkinmi? Kerakli mavjudot koinotdami yoki undan tashqaridami yoki yo'qmi? Bu holatda antinomiya bu savollarga ham ijobiy, ham salbiy javob foydasiga bir xil darajada ishonchli dalillar berilishi mumkinligidan iborat bo'lganligi sababli, antinomiyaning hal qilish, albatta, inson bilimi ikkinchisida to'siqqa duch keladi degan xulosaga olib keladi. Buni kesib o'tish ham, g'alaba qozonish ham mumkin emas.

Kantning fikricha, biz fazo, vaqt, materiya, sabab va hokazolarni faqat ko'rinish (hodisalar) sifatida bilamiz, lekin hech narsani bilmaymiz: o'z-o'zidan nima ekanligini (noumena). Shuning uchun biz bu masalalarni dogmatik o'rganishdan voz kechishimiz kerak; mutlaq va cheksiz g'oyasi faqat tartibga soluvchi printsip ma'nosiga ega, ya'ni uning o'zi bilimlarni kengaytirish manbai bo'lib xizmat qilmaydi, balki bilimning tobora progressiv kengayishiga rahbarlik qiladi. Sof aqlning antinomiylaridan tashqari, Kant axloqiy, diniy va estetik ongning bir qator fundamental antinomiylarini shakllantirdi.

Gegel Kantning antinomiylarining ahamiyatini qayd etdi, chunki ular uning qarashlarining dialektik mohiyatini aks ettiradi. Uning so'zlariga ko'ra, antinomiylar yoki qarama-qarshiliklar "barcha turdagi ob'ektlarda, barcha tasavvurlar, tushunchalar va g'oyalarda" mavjud.

Kantning antinomiylari zamonaviy rasmiy mantiq ma'nosida "antinomiylar" emas, chunki ulardagi tezisning ham, antitezaning ham asoslanishini mantiqiy to'g'ri fikrlash shaklida ifodalash mumkin emas. XIX—XX-asrlar bo'sag'asida mantiq va matematikada bir qancha asl antinomiylar (to'plamlar nazariyasi) ochildi, bu mantiq va matematika asoslari bo'yicha tadqiqotlarning faollashuvining sabablaridan biri bo'ldi.

Mantiqda antinomiylar o'ziga xos tarsda namoyon bo'ladi.

Matematik mantiqda antinomiya - bu ma'lum bir bayonot va uning inkori bir-biridan kelib chiqishini ko'rsatadigan fikrlashdir. Bunday bayonotlar qarama-qarshilikka olib keladi. Eng mashhur antinomiylar yolg'onchi paradoksi va Russell paradoksidir.

Antiteza - bu tezisga qarama-qarshi bo'lgan bayonot. Mantiq va falsafada antiteza tezisga qarama-qarshi bo'lgan hukmdir. Qarama-qarshilik bilan isbotlashda isbot tezisiga zid bo'lgan antitezani rad etish orqali isbotlanadi. Tezis va antiteza antitetik takliflar deyiladi.

Kant falsafasida tezis va antiteza "ikki tomonlama ko'rinish" (ikki tomonlama illyuziya), ya'ni ikkita qarama-qarshi, lekin ayni paytda illyuziya hukmlaridir.

G.Gegel falsafasida antiteza uchlik bosqichi, dialektik taraqqiyotdagi inkor momentidir. Antiteza - bu triadaning boshlang'ich momentini - tezisni inkor etish (olib tashlash) va uning qarama-qarshiligiga aylanishi, bu esa, o'z navbatida, rivojlanishning oldingi ikki bosqichining xususiyatlarini birlashtirgan uchinchi moment - sintez tomonidan inkor etiladi.

Apriori - har qanday tajribadan oldin mavjud, tug'ma. Uning antinomiya Posteriori. Bu tajribadan keyin mavjud, undan tashqaridagi holat. Sensor sezgining apriori shakllari - Kant falsafasida bular makon va vaqt.

Aporiya (yunoncha aporia - qiyinchilik, hayratda qolish) - qadimgi yunon faylasuflari tomonidan hal qilib bo'lmaydigan yoki hal etilmaydigan muammolarni (ko'pincha kuzatish va eksperimental ma'lumotlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar va ularni aqliy tahlil qilishga urinishlar bilan bog'liq) belgilash uchun ishlatiladigan atama. Eng mashhur aporiya Elea Zenonidan keladi, "Dichotomiya",

Argument (lot. argumentum – isbot) – tezisni isbotlash uchun keltiriladigan fikrlar, dalillar. Bunday fikrlar praktikada isbotlangan bo'lishi kerak.

